

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI
VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

Qo‘lyozma huquqida

SHOPULATOVA NASIBA UMIROVNA

**SAID AHMAD ASARLARINING
LEKSIK-STILISTIK
XUSUSIYATLARI (“Jimjitlik” asari
misolida)**

**5A 111201 – O‘zbek tili va adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A T S I Y A

ILMIY RAHBAR:

f.f.n. R.S.Nuritdinova

NAVOIY – 2013

Reja:

Ishning umumiy tavsifi

Kirish

I bob. Leksik birliklar badiiy asar tili va adib uslubini shakllantiruvchi vosita sifatida

- 1.1. Said Ahmad asarlarida sinonim so'zlarning qo'llanishi
- 1.2. Said Ahmad ijodida zid ma'noli so'zlarning qo'llanilishi
- 1.3. Said Ahmad asarlarida barqaror birikmalarning qo'llanilishi
- 1.4. Said Ahmad asarlarida ko'chma ma'noli so'zlarning qo'llanilishi
- 1.5. Said Ahmad asarlarida dialektizmlarning qo'llanilishi
- 1.6. Said Ahmad asarlari tilida varvarizm va undalmalardan foydalanish mahorati
- 1.7. Said Ahmad asarlarida eskirgan so'zlarning qo'llanilishi

II bob. Said Ahmad ijodidagi badiiy tasvir vositalarining lingvistik asoslari hamda ularning nutqiy individuallikni ta'minlashdagi o'rni

- 2.1. Said Ahmad asarlarida fonetik vositalarning qo'llanilishi
- 2.2. Said Ahmad asarlarida sintaktik figuralarning qo'llanilishi

Umumiy xulosalar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

ISHNING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Har qanday milliy til kabi o'zbek tili ham o'zbek millatini birlashtiruvchi, uning milliy ruhini ifodalovchi vositadir. Chunki Respublika Prezidenti ta'kidlaganidek: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili bu millatning ruhidir. Ona tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar"¹.

XX asr oxiri va XXI asr boshi o'zbek nasri (xususan, qissa va romanlari) borasidagi kuzatilgan tadqiqotlarda ularga, asosan, adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondashilib, yozuvchining ijtimoiy-falsafiy qarashlari, qahramon va ruhiyat muammosi, psixologik tasvir, bayon usuli va boshqalar haqida fikr yuritiladi.

Bu davr asarlaridagi mualliflarning til imkoniyatlaridan foydalanish masalasi yoki qissa va romanlarning lisoniy jihati deyarli yoritilmagan, aytish mumkinki, nasriy asarlarning bu jihatiga endi-endi e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Karimov S.A. "O'zbek tilining badiiy uslubi" doktorlik dissertatsiyasi, Yo'ldoshev M. "Cho'lpon badiiy til mahorati" nomzodlik ishi, Normurodov R.U. "Shukur Xolmirzayev asarlarining til xususiyatlari" nomzodlik ishlarini keltirish mumkin.

Ilgariroq badiiy asar poetikasiga nisbatan lisoniy yondashuvga harakat H.H.Niyoziy, Cho'lpon, A.Qodiriy, Oybek, G'.G'ulom, A.Qahhor, Said Ahmad kabi adiblar ijodiga nisbatan kuzatiladi. Shomaqsudov A. "O'zbek adabiy tilining rivojlanishida Hamza ijodining ahamiyati", Shoabdurahmonov Sh. "Oybek romanlarining tili va stili", To'rabekova S. "G'afur G'ulom poemalarining tili va stili haqida", Samadov Q. "Oybek til mahoratining ba'zi masalalari", Turdialiyev B. "Hamza va o'zbek adabiy tili", Aliyev A.Yu. "Abdulla Qodiriy «Obid ketmon» qissasining ba'zi til xususiyatlari", Yuldashev B. "Yazyk i stil proizvedeniy Saidaxmada" ishlarini sanab o'tish mumkin.

¹ Karimov I. A. Adolat, Vatan va xalq manfaati har narsadan ulug'. –Toshkent: O'zbekiston, 1998. –B.59.

So'nggi davr yozuvchilari nasriy asarlari xususidagi ilmiy tadqiqotlar xarakteri, asosan, adabiy tahlil doirasida ekanligi va badiiy asar tilini lingvistik jihatdan o'rganishga ehtiyoj ortganligi bois, keyingi paytda lingvopoetik tahlilga e'tibor ancha kuchaydi. Bu borada qator ishlar ham amalga oshirildi. Xususan, R.U.Normurodovning «Shukur Xolmirzayev asarlarining til xususiyatlari» (2000), M.Yo'ldoshevning «Cho'lpon so'zining sirlari» (2002), G.Muhammadjonovanning «80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi» (2003), M.Muhiddinov va S.Karimovlarning «G'afur G'ulomning poetik mahorati» (2003), D.Ne'matovanning «Cho'lpon publitsistikasining lingvistik xususiyatlari» (2004), S.Boymirzayevaning «Oybek prozasining lingvostilistik tadqiqi» (2004) kabi tadqiqotlarida Cho'lpon, Oybek, G'afur G'ulom kabi so'z ustalari ijodini o'rganishga bag'ishlangan an'anaviy mavzular yoki she'riyat borasida tadqiqotlar olib borilgan. Bular ichida Shukur Xolmirzayev ijodi tahliliga bag'ishlangan tadqiqotdagina belgilangan davr nasrining o'ziga xos poetik xususiyatlarini o'rganish maqsad qilib olingan. Bu borada muayyan ishlar amalga oshirilganiga qaramay, ko'rsatilgan davrdagi ayrim yetuk ijodkorlar asarlarining lisoniy jihatlari deyarli o'rganilmaganligi ishning dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Badiiy adabiyot tilini o'rganish va tahlil qilishning ham nazariy, ham amaliy masalalari ko'pdan buyon filologlarni qiziqtirib keladi. Chunki muayyan til stilistikasining rivojlanishida milliy badiiy adabiyot tilining ahamiyati kattadir.

Badiiy asar tilida keng qamrovli til birliklari – fonetik, leksik, grammatik va majoziy vositalarni kuzatish mumkin. Shu bilan birga ijodkorning so'z boyligidan o'ziga xos tarzda foydalanishi, morfologik shakllar va sintaktik qurilmalarni tanlashi va boshqa jihatlarida yozuvchining individual uslubi ham yuzaga chiqadi.

Rus tilshunoslari V.Vinogradov, L.V.Shcherba, A.Peshkovskiy, A.I.Efimov, G.O.Vinokur, V.V.Timofeyeva, D.E.Rozental, V.M.Jirmunskiy,

M.P.Brandes, N.M.Shanskiy, L.A.Novikov, M.I.Kojina va boshqalar o'z tadqiqotlarida badiiy asarlar tilini o'rganish masalasiga jiddiy e'tibor qaratdilar.

O'zbek filologiyasida ham o'tgan asrning 40-yillaridan boshlab yozuvchi tili uslubi, badiiy asar tili bo'yicha tilshunoslar ham, adabiyotshunoslar ham baravar tadqiqot olib bora boshladilar. Bunday ishlar, dastlab maqolalar tarzida, keyinroq nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarida tadqiq etildi. Bu tadqiqot ishlarida badiiy adabiyot tili muammolari borasida turlicha qarashlar mavjud. Masalan, S.Mamajonov, O.Sharafutdinov, N.Karimov, N.Shukurov, M.Sultonova, J.Tursunov, Y.Solijonov, G.Imomova, A.Boboniyozovlar masalaga adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondashsalar, A.Shomaqsudov, Sh.Shoabdurahmonov, S.To'rabekova, B.Turdialiyev, Q.Samadov, A.Yu.Aliyev, S.A.Karimov, M.Yo'ldoshev, R.U.Normurodov kabi olimlar tilshunoslik aspektida tahlil qiladilar.

Mazkur dissertatsiyada badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlarini ta'minlovchi omillar tilning barcha sathlari doirasida o'rganildi. SHu bilan birga Said Ahmadning ijodi, xususan, "Jimjitlik" romani ilk bor lisoniy tahlil ob'ekti qilib olindi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Badiiy asar nutqi individual xususiyatlarini o'zbek badiiy-adabiy tili materiallari, lisoniy dalillar asosida tahlil qilish ushbu tadqiqotning asosiy maqsadini tashkil etadi. Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- badiiy ijodda til va uslub tushunchalari, individual uslubning o'ziga xos xususiyatlarining lisoniy asoslari muammosining o'zbek tilshunosligi va uslubshunosligida o'rganilish holatini ilmiy-tanqidiy tahlil qilish hamda baholash;

- Said Ahmadning "Jimjitlik" asari uslubini o'rganish asosida istiqlol davri adabiyotida real voqelikni aks ettirishda adib mahoratining lisoniy omillarini o'rganish;

- badiiy asar nutqi va adib uslubini shakllantirishda ishtirok etuvchi leksik, fonetik, grammatik vositalar, badiiy tasvir vositalari, paremlar, dialektizmlar va

boshqalarning lisoniy omillari, voqelashuvi va nutq individualligini ta'minlashdagi o'rnini atroflicha tahlil qilish.

Tadqiqot ob'ekti. Said Ahmadning "Jimjitlik" asari tadqiqotning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, XX asrning 80-90-yillarida yaratilgan ayrim romanlar, ba'zi o'rinlarda esa qiyoslash maqsadida yozuvchilar ijodiga ham murojaat qilindi.

Tadqiqotning metodologik asosi. Tadqiqotning metodologik asosi bo'lib dialektikaning umumiylik-xususiylilik, shakl-mazmun kategoriyalari xizmat qiladi. Ana shu asosda zidlanuvchi til-nutq dixotomiyasida badiiy tasvir vositalari mavqeini aniqlashda til va uslub masalasi yuzasidan ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslikdagi nazariy asoslar va ilmiy tahlil usullariga tayanildi. Asosan, lingvopoetik, uslubiy va qiyosiy tahlil usullaridan keng foydalanish nazarda tutildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar.

1. Badiiy nutq individualligi lingvistik omillar bilan ta'minlanadi.
2. Lingvistik omillar turli tabiatli bo'lib, tilning barcha sathlarini qamrab oladi.
3. Said Ahmad ijodi badiiy nutqining o'ziga xosligini leksik va grammatik til birliklari, badiiy tasvir vositalari, okkazionalizmlar, paremlar kabi uslubiy vositalarning faolligi ta'minlaydi.
4. Maqol, matal masal va idiomalar ichki immanent xususiyatlariga ko'ra badiiy nutq tarkibida va, umuman, til tizimida o'z o'rnini hamda mavqeiga egadir.
5. Said Ahmad badiiy nutqida dialektizmlarning barcha ko'rinishlari mustaqil stilistik figuralar darajasiga ko'tarilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi.

- XX asrda yuzaga kelgan ijtimoiy voqelik natijasi sifatida shakllangan o'ziga xos nutq egasi bo'lgan Said Ahmad badiiy ijodi birinchi bor lisoniy nuqtai nazardan tahlil etildi;
- uslub, uslubiyat, poetika tushunchalari aniqlashtirildi;

- uslub turlari va chegaralari belgilandi;
- individual uslub xususiyatlari ochib berildi;
- turli xil lisoniy vositalar - okkazionalizmlar, gapni murakkablashtiruvchi vositalar, muayyan fonetik hamda leksik vositalarning Said Ahmad nutqidagi stilistik imkoniyatlarini boshqa adiblar nutqi bilan qiyoslab kuzatish orqali ularning badiiy uslubni individuallashtirishdagi o'rni yorqinlashtirildi;
- umuman, paremalarning stilistik qo'llanish imkoniga ko'ra tasnifi berildi;
- metafora, ramz, kinoya kabilar zamonaviy tushunchalar asosida ta'riflandi, tasniflandi;
- dialektizmlarning stilistik o'rni belgilandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot badiiy til masalalarini tadqiq etuvchi ishlar sirasiga kiradi va o'zbek tili uslubshunosligidagi muayyan nazariy masalalarni hal etishda badiiy nutq individualligi yo'nalishidagi tadqiqotlar uchun ma'lum darajada nazariy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ma'lum bir ijodkorning til vositalaridan foydalanish tamoyillarini aniqlash, ijodiy jarayon, bu jarayonga xos bo'lgan lingvistik xususiyatlarni o'rganish uning asosiy qonuniyatlarini ochishga ham yordam beradi.

Tadqiqot natijalari oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida uslubshunoslik, badiiy matn tahlili, hozirgi zamon o'zbek adabiy tili kabi nazariy kurslarni o'tishda, badiiy til poetikasi muammolariga bag'ishlangan qo'llanmalar tayyorlashda, maxsus kurslarni o'qitishda, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi talabalarida badiiy asar tilini tahlil qilish malakasini shakllantirishda yordam beradi.

Dissertatsiya natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqotning asosiy mazmuni 10ta ilmiy maqola hamda tezislarda o'z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning tarkibi va hajmi. Dissertatsiya kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

KIRISH

Muayyan biror til stilistikasining rivojlanishida milliy badiiy adabiyot tilining ahamiyati katta ekanligi badiiy asarlar tilini o'rganish va tahlil qilishning ham nazariy, ham amaliy masalalari tadqiqotchilarni o'ziga jalb qilib kelayotgani ma'lum. Badiiy asar tili haqida so'z borar ekan, dastavval, tilning bevosita bir-biriga aloqador uch tomonini qayd etish zarur bo'ladi: badiiy til, adabiy til, jonli so'zlashuv tili.

Bu tushunchalar bir-birini to'ldirib, ayni paytda bir-biridan ozuqa olib yashaydi. Nazariy manbalarda ularning quyidagi xususiyatlari qayd etiladi:

1) adabiy til grammatik me'yorlarga bo'ysundirilgan, qat'iy talaffuz normalariga ega bo'lgan, jonli xalq tilidagi har xilliklarni bir xillikka olib kelgan tildir;

2) jonli so'zlashuv tili yoki umumxalq tilida grammatika va orfoepiya qoidalariga doim ham amal qilinavermaydi, emotsional leksika va frazeologiya, sheva elementlari, kasb-hunar leksikasi, jargonlar va boshqalardan keng foydalaniladi;

3) badiiy til esa jonli so'zlashuv tiliga asoslangan, adabiy til bilan chambarchas bog'langan, hammaga tushunarli bo'lgan, «so'z ustalari tomonidan pardoqlangan, sayqal berilgan poetik tildir».¹

Ishning maqsadidan kelib chiqib, faqat badiiy til, ya'ni badiiy asar tili doirasida fikr yuritamiz. «Chunonchi, yozuvchi hayotiy voqea-hodisalarni tasvirlab, obraz yaratar ekan, u so'zlashuv tili boyliklaridan, jonli tildagi sheva va kasb-hunarga oid til birliklaridan ham, adabiy til normalaridan ham keng foydalanadi».²

Demak, ijodkorning til birliklaridan o'ziga xos tarzda foydalanishi, morfologik shakllar va sintaktik qurilmalarni tanlashi va boshqa jihatlarida yozuvchining individual uslubi ham yuzaga chiqadi.

¹ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston, 2002. – B.159.

² Zunnunov A., Xotamov N. Adabiyot nazariyasidan qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1978. – B.62.

O'zbek filologiyasidagi yozuvchi tili uslubi, badiiy asar tili bo'yicha qilingan tadqiqot ishlarida badiiy adabiyot tili muammolari borasida turlicha qarashlar mavjud. B.Umurqulov «Poetik nutq leksikasi» monografiyasi¹da bu sohadagi ishlarni 3 guruhga bo'ladi:

- 1) umumiy masalalarga doir ishlar;
- 2) lingvistik aspektda o'rganishga doir ishlar;
- 3) adabiyotshunoslik aspektida o'rganishga doir ishlar².

B.Umurqulovning ushbu monografiyasida alohida qayd etilgan, lekin guruh sifatida ko'rsatilmagan bir qator tadqiqotlar borki, bular biror konkret ijodkorning tildan foydalanish mahorati haqida bahs yuritadi. Bunday ishlarda badiiy asar tilining adabiyotshunoslik va tilshunoslik omillari baravar tekshiriladi.

Muayyan yozuvchining tildan foydalanish mahoratini yoritish tilshunoslik masalasimi yoki adabiyotshunoslik doirasiga kiradimi? degan munozarali muammoga tadqiqotchilar har xil yondashadilar. Masalan, S.Mamajonov, O.Sharafutdinov, N.Karimov, N.Shukurov, M.Sultonova, J.Tursunov, Y.Solijonov, G.Imomova, A.Boboniyozovlar masalaga adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yondashadilar.

Demak, badiiy asar tilining lingvistik tahlili tushunchasini chuqurroq ma'noda olib qarash kerak bo'ladi. Chunki bunday yondashuvda ham yozuvchining muayyan til birliklaridan foydalanib, qanday ma'noni yuzaga chiqarishi o'z-o'zidan e'tiborga olinadi. Faqat bunda o'sha til elementlarining kelib chiqish faktiga chuqurroq yondashiladi. Xuddi tanganing ikki tomonini ajratib bo'lmaganidek, badiiy adabiyot tilini yoki badiiy asarning o'zini alohida bo'laklarga ajratib qarash o'zini oqlamaydi. «Agar tilshunoslik bilan adabiyotshunoslik filologiya fanining ikki asosiy sohasi bo'lsa, badiiy til shu

¹ Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. – T., Fan, 1990. – B.7.

² Umurqulov B. O'sha joyda...

ikkala sohaga ham ozuqa beradigan, ularni tubdan birlashtirib turgan umumiy ildizdir».¹

Lekin shunday bo'lsa-da, adabiyotshunoslik stilistikasi va tilshunoslik stilistikasining tadqiqot doiralari kuzatiladi. Umuman, badiiy asar tilini tilshunoslik aspektida o'rganishga oid tadqiqotlar anchagina ekanligini yuqorida ko'rib o'tdik. Suyun Karimov «O'zbek tilining badiiy uslubi» doktorlik dissertatsiyasida² badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishda yozuvchi shaxsining ishtiroki masalasiga lingvistik stilistika pozitsiyasida turib yondashadi. Biz tadqiqot ishimizda shu olimning nazariy asoslariga tayanishga harakat qildik.

«...tilda badiiylikka xizmat qiluvchi vositalar qanchalik ajralib, ma'lum bo'lib turgan bo'lsa ham, har bir ijodkor ularni tanlashda o'ziga xos yo'ldan boradi. Shu orqali faqatgina g'oyaviy pishiq, badiiy mukammal, kitobxonga estetik zavq beradigan asarlar namunasini yaratibgina qolmasdan, til vositalaridan foydalanishda o'ziga xos mahoratini ham namoyish qilishi va shu bilan badiiy uslub kamolotiga o'z hissasini qo'shishi tabiiydir».³

Shunday ekan, yozuvchi uslubini yuzaga chiqaruvchi omillar xususidagi masalaga lingvistik aspektda yondashishni o'rinli deb topdik. Shu bilan birga, o'rni bilan adabiy tahlilga ham murojaat qilinadi.

Badiiy asar tilining badiiy-estetik vazifalari tilshunoslikning nazariy tomonlari bilan bog'liq holda tadqiq qilinar ekan, keyingi paytda iste'molga kirib kelgan *lingvopoetika* atamasini qo'llash o'rinli hisoblanadi. Chunki, «Lingvopoetik tahlil jarayoni faqat yozuvchining tili va uslubi haqida ma'lumot berish bilan chegaralanmaydi, balki asar yaratilgan davr tilining o'ziga xosligi, yozuvchining so'z boyligi, til vositalaridan foydalanish usullari, badiiy tasvir vositalarining til faktlari vositasida aks ettirilishi, umuman, tilni uning barcha sathlari yuzasidan tahlil qilishdan iborat bo'ladi».⁴

¹ Qodirov P. Xalq tili va realistik proza. – T.: Fan, 1973. – B.4.

² Karimov S.A. O'zbek tilining badiiy uslubi: Filol. fanlari d-ri... diss. – Samarqand, 1993.

³ Karimov S.A. O'sha joyda. – B.59.

⁴ Rixsiyeva G. Lingvopoetik tadqiq asoslari bo'yicha mulohazalar // O'zbek tili va adabiyoti. – 2003. – №2. – B.84-86.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, yozuvchi asarlarining lingvistik xususiyatlarini o'rganishga doir keyingi paytdagi ishlarda¹ asosan, leksik-semantik qatlam doirasida fikr yuritilgan. Bu jihatdan Said Ahmad ijodi tilning barcha sathlari uchun boy material bera oladi deb o'ylaymiz.

Badiiy adabiyotning asosiy vositasi til bo'lganligi uchun ham badiiy asar tili, obrazli ifoda mahorati masalasi badiiy adabiyot bilan deyarli bir vaqtda vujudga keldi va rivojlandi.

Badiiy tilning belgilovchi xususiyatlari obrazlilik va emotsionallik hisoblanadi. Poetik obrazlar esa fikrni ixcham va lo'nda ifodalashga, yorqin va umumlashgan tasavvurlar yaratishga, ular orqali muayyan hodisa, fikr va his - tuyg'ularni eslab qolishga yordam beradi. Shu tariqa asar poetikasi vujudga keladi.

Badiiy adabiyot tilida o'sha asar yaratuvchisining o'ziga xos individual xususiyatlari ko'rinar ekan, yozuvchining uslubi ikki muhim nuqtada – 1) idrok etish uslubi va 2) ifoda etish uslubida namoyon bo'ladi. Chunonchi, yozuvchi hayotni o'rganish, odamlarni kuzatish, asarga material to'plashi jarayonida paydo bo'lgan g'oyaviy maqsadini o'z dunyoqarashi doirasida takomillashtiradi. Asarni yozish davomida esa o'z tafakkurida jamlangan voqea-hodisalardan eng zarurlarini tanlab, saralab oladi va ularni o'ziga xos tarzda ifodalaydi. Shu tarzda nimalarni ifodalashi va qay tarzda ifodalashiga ko'ra yozuvchi uslubi yuzaga chiqadi.

Xo'sh, uslub nima? Uslub atamasi turli ma'no va tushunchalarni ifodalaydi. Yunonchadan olingan «stil» so'zi ham uslubga sinonim sifatida ishlatiladi.

O'zbek filologiyasida S.Mamajonov, I.Sultonov, P.Qodirov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Shomaqsudov, M.Sultonova, E.Qilichev va

¹ Yo'ldoshev M. Cho'lpon badiiy til mahorati: Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. – T., 2000; Normurodov R.U. Shukur Xolmirzayev asarlarining til xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. – T., 2000.

boshqalarning tadqiqotlarida¹ til va uslub tushunchalari turli tomonlardan tadqiq qilingan.

Shu kunga qadar o'zbek filologiyasida uslubiyat va uslubshunoslik, uslub tushunchalari o'zining aniq va lo'nda ta'rif-tavsifiga ega emas. Bu masalaga turlicha yondashuvlar va ayrim chalkashliklar davom etib kelmoqda.

Zero, «uslub deganda har bir yozuvchi ijodining faqat o'zigagina xos, takrorlanmas g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini tushunsak, metod deganda esa, aksincha, dastlab hayot voqea-hodisalarini saralab olish, tasvirlash va baholashda yozuvchilar asoslanadigan estetik tamoyillarning umumiyligini, mushtarakligini anglaymiz»². Hozirgi o'zbek tilshunosligida asosiy qo'llanma bo'lib kelayotgan «O'zbek tili stilistikasi»³ darsligida ham V.Vinogradovning yuqoridagi tasnifi e'tirof etilgani holda, «Stil haqida tushuncha» paragrafidagi ushbu uch guruhning o'ziga xos jihatlari o'zbek adabiy tili doirasida tahlil etilmagan, asosan, funksional uslublarga e'tibor qaratilgan, xolos. Bu esa masalaning mohiyatini to'liq yetkazib bera olmagan.

Endi ishning umumiy xarakteridan kelib chiqib, ijodkorning individual uslubi tushunchasiga to'xtalamiz.

Individual uslub o'ziga xos estetik idrokka va didga ega bo'lgan chinakam yuksak iste'dod sohibining ijodidagina bo'rtib ko'rinuvchi belgidir. Bu xususdagi qarashlar ham turlicha talqin qilinadi.

Adabiyot va san'atda uslub atamasi keng va tor ma'noda qo'llanadi. Keng ma'noda asarning umumiy tasvir doirasi, badiiy tasvir vositalaridagi o'ziga xos yaxlitlik, san'atkorning dunyoqarashi ifodasidagi umumiylik va boshqa yaxlit tushunchalarni qamrab oladi.

Tilshunoslikda uslub tushunchasi tilning ifoda maqsadlariga xizmat qiluvchi fonetik, leksik va keng grammatik vositalardan foydalanish imkoniyatidir.

¹ Qilichev E. O'zbek tilining praktik stilistikasi. –M.: O'qituvchi, 1985.; Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. –T.: O'qituvchi, 1983.

² Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T., O'zbekiston. –T.: O'zbekiston, 2002. – B.521.

³ Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. – T.: O'qituvchi, 1983.

Adabiyotshunoslar uslubni «yozuvchining g'oya, xarakter, mavzu, til kabi badiiy komponentlar yaratishdagi mahorati natijasi»¹, «adabiy asardagi obrazli-ekspressiv detallarning estetik birligi, badiiy tasvir vositalarining qo'llanishida namoyon bo'ladigan yozuvchining o'ziga xosligi, o'zligi»² yoki «badiiy asar tuzilishining barcha elementlari – asarning g'oyaviy yo'nalishi–tematikasi, obrazlar sistemasi, syujet-kompozitsiyasi, tili – tasviriyy vositalari, janri va metodi bilan ijodkor o'ziga xos shaxsiyatining dialektik birligi belgilaydi»³ deya ta'riflasalar; tilshunoslar «badiiy asardagi har bir til elementining stilistik bo'yog'ini o'rganishga harakat qilishi»⁴, «yozuvchining dunyoqarashi, o'y-fikri, uning tushunish darajasi, yangilik-ixtirosi uning asarlarida badiiy til orqali yuzaga kelishi»⁵ni e'tirof etadilar.

Bu ta'riflardan ko'rinib turibdiki, badiiy asar tili va yozuvchi uslubini o'rganish masalasi bir-biridan ajratib olingan alohida narsa emas, balki adabiyotshunoslik va tilshunoslik nuqtai nazaridagi tushunchalarni o'zida birlashtiruvchi yaxlit maydondir. Abdurauf Fitrat uslub tushunchasiga shunday ta'rif bergan edi: «Bu kun Elbek, Cho'lpon, Botu, Qodiriy, Sh.Sulaymon kabi o'zbek adib-shoirlari bor. Bularning ifodalari albatta o'zbekchadir. Biroq, u adib-shoirlarimizning asarlari o'qilg'onda ifodalarning bir-biridan o'zgacharoq bo'lgani ko'rinib turadi. Demak, ulardan har birining o'ziga maxsus bir «ifoda yo'sini» bor. Mana shu ifoda yo'siniga «uslub» deyiladi».⁶

O'zbek adabiy tilining rivojlanishi, umummilliy adabiy til darajasiga ko'tarilishida badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, bugungi davr adabiyotiga o'z hissasini qo'shayotgan ijodkorlar asarlarining tili va uslubini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda yozuvchi Said Ahmad asarlarining o'ziga xos uslubiy jihatlarini o'rganishga ahd qildik.

¹ Sultonova M. Yozuvchi uslubiga doir. –T.: Fan, 1973. – B.3.

² Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O'zbekiston, 2002.

³ Mamajonov S. Uslub jilolari. – T.: Adabiyot va san'at, 1972. – B.80.

⁴ Qilichev E. O'zbek tilining praktik stilistikasi. – T.: O'qituvchi, 1985. – B.8.

⁵ Normurodov R.U. Shukur Xolmirzayev asarlarining til xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. – T., 2000. – B.4.

⁶ Fitrat. Adabiyot qoidalari. –T.: O'qituvchi, 1995. –B.23.

I BOB. LEKSIK BIRLIKLAR BADIY ASAR TILI VA ADIB USLUBINI SHAKLLANTIRUVCHI VOSITA SIFATIDA

Badiiy nutq obrazli va emotsional-ekspressiv ifodalilikka ega ekan, bunda tilning kommunikativ funksiyasi bilan emotsional-ekspressivlik funksiyasi qo'shilib ketadi. Shunday ekan, badiiy asarni idrok qilish til qurilishini anglash orqali amalga oshiriladi.

«Badiiy nutq stili avtorlarga asarning estetik ta'sirini kuchaytirish uchun tilning barcha leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan foydalanish, tanlash, shuningdek, yangidan-yangi ifoda vositalari yaratish imkonini beradi».¹

Yozuvchilarning til vositalaridan foydalanishdagi individual ijodiy mahorati turlichadir. Badiiy asar tili va yozuvchi uslubini o'rganishda, ko'pincha, leksik, frazeologik vositalar, badiiy tasvir vositalari, ijodkorning okkazional so'z va ibora yaratish mahorati kabi masalalar o'rganiladi²—yu, ularning fonetik va grammatik xususiyatlari e'tibordan chetda qoldiriladi. Lekin Said Ahmad asarlari tahliliga jiddiy yondashilsa, tilning barcha sathlari uchun ham boy poetik material bera olishi kuzatiladi.

Said Ahmad asarlari tahlili jarayonida leksik unsurlardan unumli foydalanganligining guvohi bo'lamiz. Ayniqsa, uning so'z qo'llash san'ati diqqatga sazovordir.

Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional – ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy –estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Buning uchun badiiy asar tilidagi ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, ko'p ma'noli, tarixiy va arxaik

¹ Shomaqsudov A. va boshqalar. O'zbek tili stilistikasi. – T., O'qituvchi, 1983. – B.30.

² Aliyev A.Yu. Abdulla Qodiriy «Obid ketmon» qissasining ba'zi til xususiyatlari//O'zbek tilshunosligining aktual masalalari. – T., 1985; O'zbek adabiy tili tarixidan materiallar. – T., 1986; Yo'ldoshev M. Cho'lpon badiiy til mahorati: Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. – T., 2000; Normurodov R.U. Shukur Xolmirzayev asarlarining til xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. – T., 2000.

so'zlar, yangi yasalmalar, shevaga oid so'zlar, chet va vulgar so'zlar ajratib olinadi va asarga nima maqsad bilan olib kirilganligi izohlanadi.¹

¹ Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. : "Fan", 2006, 45b

1.1. Said Ahmad asarlarida sinonim so'zlarning qo'llanishi

Ma'nodosh so'zlar tilning lug'aviy jihatdan boylik darajasini ko'rsatib beruvchi o'ziga xos vositadir. Tilda ma'nodosh so'zlarning ko'p bo'lishi tilning estetik vazifasini yanada to'liq bajara olishini osonlashtiradi. Bu juda qadim zamonlardan beri anglangan, idrok etilgan va o'rganilgan. Yozuvchilar tilimizdagi ma'nodosh so'zlar ichidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan aniq so'zni topib o'z asarlarida qo'llashga harakat qiladilar, shu tariqa, qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha real ko'rsatib berishga intiladilar. Badiiy matndagi sinonimlar tahlilida, asosan, ikki jihatga e'tiborni qaratish zarur. Ulardan biri muallifning ikki yoki undan ortiq ma'nodosh so'zdan ifodalanayotgan mazmun uchun eng maqbulini tanlash bo'lsa, ikkinchisi ayni bir matn tarkibida ikki yoki undan ortiq ma'nodosh birliklarni badiiy tasvir maqsadiga uyg'un holda qo'llashi masalasidir.¹

Sinonimlar yunoncha *synonymos* – bir nomli ya'ni bir umumiy ma'noga ega bo'lgan, qo'shimcha ma'no ottenkasi, uslubiy bo'yog'i, qo'llanishdagi xususiyati va shu kabi belgilari bilan farqlanadigan so'zlar.² Sinonimlar o'z tarkibidagi tovushlari, talaffuzi jihatdan boshqa-boshqa bo'lgan so'zlardir. Sinonimlar shaklan boshqa bo'lsa-da, ma'no jihatdan ayni bir tushuncha yo tasavvurni ifodalab, birlashtiruvchi bir ma'noni bildiradi. Bir sinonimik qatorga kiruvchi so'zlarning birlashtiruvchi ma'nosi bir xil bo'lsa-da, lekin bu so'zlarning ma'no ottenkalari ularning bir-biridan farqini ko'rsatadi. Demak, birlashtiruvchi ma'nosi bir xil, talaffuz va yozilishi hamda qo'shimcha ma'nolari har xil bo'lgan so'zlarga sinonimlar deyiladi.³

Said Ahmad asarlari tahlilli jarayonida quyidagi o'rinlarda ma'nodosh so'zlarni uchratdik.

¹ Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlilli asoslari. T.: "Fan", 2006, 45 b

² Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: "Fan", 2002, 88b

³ Pinxasov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya va frazeologiya. "O'qituvchi". – T, 1969y, 22b

Osmon xuddi bolaligidagidek tiniq. Sanoqsiz yulduzlar bir- birlari bilan imlashadi. Ular Tolibjonni ko'k bag'riga chorlayotganga o'xshaydi. Tog' ortidan ko'tarilgan barkashdek oy bir gala bulutni haydab chiqdi. Tolibjon kiprik qoqmay osmonga tikilib yotibdi. Kecha shu qadar jimjitki, hatto keksa qayrag'ochda mudragan chumchuqning iniga sig'may tipirchilagani ham eshitiladi.(*"Jimjitlik"*, 6-bet). Ushbu o'rinda osmon, ko'k bag'ri leksemalari o'zaro ma'nodoshlikni yuzaga keltirgan.

Ma'lumki, har bir lingvistik vosita badiiy nutqda nominativ vazifa bajarish bilan birgalikda uslubiy vosita ham bo'la olishi mumkin. Sintaktik figuralar jonli til tabiatidan kelib chiqadigan nutqiy hodisalar bo'lib, badiiy nutqda muayyan uslubiy maqsadni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Chunki badiiy asarda til birliklari muallif tomonidan kommunikativ ta'sir maqsadida tanlab olinadi va shu jarayonda adibning individual faoliyati namoyon bo'ladi.

PARALLELIZMda strukturasi bir xil bo'lgan sintaktik birliklar ketma-ket kelib, ikki va undan ortiq o'xshash xodisalar bir-biriga qiyoslanadi. Parallelizm sintaktik simmetriyani hosil qilib, ifodalilikni kuchaytiradi.

Tolibjonning esida onasining semiz, go'shtdor qo'lida kumush bilaguzugi ko'rinmay ketgandi. O'sha qo'llar endi juda ingichka juda nimjon bo'lib qopti. (*"Jimjitlik"*, 8- bet). Ushbu o'rinda semiz, go'shtdor va ingichka, nimjon leksemalari o'zaro sinonimlikni yuzaga keltirgan. Lekin bu o'rinda semiz, go'shtdor leksemasi ingichka, nimjon leksemasiga nisbatan antonimlikni hosil qilgan. Bir o'rinda ham sinonimiya , ham antonimiyani yuzaga keltirish yozuvchi mahoratining bir ko'rinishidir. Said Ahmad asarlari tadqiqi jarayonida tildagi tayyor sinonimlardan foydalanib qolmasdan yozuvchidan juda katta mahorat talab qiluvchi kontekstual sinonimlar ham uchraydi. *U qadrdonini bag'riga bosarkan, biron og'iz so'z aytishga tili aylanmasdi. Shu topda ham quvonch,ham buyuk bir andisha tilini tanglayiga yopishtirib qo'ygandi.*(*"Jimjitlik"*,16-bet). Odamzod qiziq bo'ladi. O'y o'ylab topolmagan, xayolingga ming uringaning bilan keltirolmagan umringni yo azob, yo quvonch,yo andisha paytlarida lop etib bir daqiqada ko'rasan. O'tgan

umring ko'z oldingdan juda tiniq,juda aniq bo'lib o'tadi. “Quvonch” leksemasining bosh ma’nosi “quvonish his-tuyg’usi, xursandlik”(O’TIL V, 362). “Andisha” leksemasining bosh ma’nosi “ketini, oqibatini o’ylab yoki yuz xotir qilib yuritilgan mulohaza ” (O’TIL I, 84)

Said Ahmad ijodida ko’chim(trop)lar bilan birgalikda uslubiy-sintaktik figuralarning ham emotsional-ekspressiv ma’nolarni shakllantirishga qaratilgan stilistik imkoniyatlaridan keng foydalanilgan.

Sinonimlar

1. Tolibjon ona ovozidan mast edi. Bolalik yillaridagidek uning bag’rida erkalangisi, yuzlarini yuzlariga qo’yib ishqalagisi keldi. Butun **xo’rliklarini, alamlarini** to’kib solgisi keldi. (“*Jimjitlik*”, 7- bet).

2. U Toshkent shahar partiya komitetida bo’lim boshlig’i bo’lib ishlardi. **Bir so’zligi, o’jarligi** birovga yoqib, birovga yoqmay yurardi. **To’g’ri so’z, fikrida sobit** Tolibjon patiya safiga o’tganda keksa kommunistlar: “Hamisha shunday bo’ling, haqiqat yo’lidan aslo chekinmang”, deb kafolat berishgandi. (“*Jimjitlik*”, 9- bet).

3. Tolibjon bo’layotgan ishlarni bilib, ba’zan **tajang**, ba’zan **isyonkor** tabiatini kuch bilan bosib yurardi. (“*Jimjitlik*”, 10- bet).

4. Luqmonov beti qattiqroq odam edi. Uni hozirgina minbardan sharmandalarcha tushirib yuborishdi. Profsoyuz lideri bilan tayyorlash ministry sha’niga juda **xunuk**, hatto **og’izga olib bo’lmaydigan gapni** minbardan turib barilla aytganida zalda to’polon bo’lib ketdi. (“*Jimjitlik*”, 10- bet).

5. Oqsoqol nihoyatda **bosiq, mulohazali** odam. Dushman hududida ko’p marta xavfli vaziyatga tushib qolganda shu xususiyati – sovuqqonligi qo’l kelgandi. (“*Jimjitlik*”, 11- bet).

6. Qaysi **aybi** uchun, qaysi **beodoblighi** uchun? – dedi oqsoqol uning ko’ziga qarab.- Chet elga yuborilganlar jazo o’tash uchun yuborilmaganlar. (“*Jimjitlik*”, 11- bet).

7. Luqmonov, yoshligingizni eslang. Hammamiz ham bu yoshda **o't-olov** bo'lganmiz, sal narsaga pov etib yonib ketardim. (*"Jimjitlik"*, 12-bet).

8. – Obbo, **darvish-ey, obbo darbadar –ey, ot aylanib qozig'ini topgandek** yana yurtingni qo'msab kepsan-da. Ajab qipsan. Endi qochib bo'psan. Bo'yningga arqon solib ishlataman. Undan keyin...(*"Jimjitlik"*, 17-bet).

9. U **ong bilan, aql bilan** sevgandi. Bu xil sevgiga muhtalo bo'lgan kishining ko'p armonlari dilida qolib ketadi. Umrda bir martagina beriladigan ishq atalmish **tuyg'umi, hissiyotni, haligacha ta'rifi kashf qilinmagan rohat** xuddi bir tadbirdek o'tadi- ketadi. (*"Jimjitlik"*, 32- bet).

10. Tolibjon bu gaplarni jimgina eshitarkan, ertalabdan beri ko'ziga telba bo'lib ko'ringan tog'a endi **adolatsizlik, shafqatsizlik qurboni, iflos. jirkanch** qo'llar g'ijimlab tashlagan ayanchli bir kimsa sifatida namoyon bo'ldi. (*"Jimjitlik"*, 40- bet).

11. – Xudoyo xudovando, shu odam xonavayron bo'lsin! Shu eshikdan lopillab tobutlar chiqsin! E xudo, borliging rost bo'lsa, shu odamni baxtiqaro qil! Umri **xorlikda, zorlikda** o'tsin, omin! (*"Jimjitlik"*, 46- bet).

12. Oftob o'chayotgan mahal ikki odam bir-biriga baqamti qilib, churq etmay turardi. Birining ichi to'la alam, dard. Biri esa butun bir xonadonni vayron qilgan, endi qasos onlari kelganda taqdirga chap berib bo'lmasligiga aqli yetib, bu dunyodan umidini uzib, lolu hayron turardi. (*"Jimjitlik"*, 46- bet).

13. Nurmat tog'a **o'jar, qaysar, jahldor** odam edi. Umuman tog'liklarning o'z o'jar qonunlari bo'ladi. (*"Jimjitlik"*, 48- bet).

14. Hojimurod o'ylab – o'ylab, bironta qilgan xayrli ishini topolmadi. Ko'z oldiga odamlarga qilgan **jabri, nohaqligi** kelaverdi. (*"Jimjitlik"*, 49-bet).

15. Bu xato emasdi. Pastkashlik ham emasdi. Bu **vahshiylik, jirkanchlik** edi. (*"Jimjitlik"*, 50- bet).

16. Joni uzilgan odamdek, tosh bag'ridan harorat ketdi. Tongga yaqin badanni uzib oladigan muzga aylandi. Hojimurod qaltirab o'rnidan turdi. Havo **salqin, muzdek** edi. Hojimurod titrab- qaqshab yuqoriga chiqa boshladi. Giyohlarga tushgan shudring tomchilari ham muzdek. (*"Jimjitlik"*, 51- bet).

17. Tolibjon har tong ana shu manzaralarni tomosha qilgani chiqadi. **Tiniq, chang – g'ubordan xoli, shaffof** havo hech qanday ta'rifga sig'maydigan ko'rinishlardan Tolibjon huzur qilardi. Uning tarang tortilgan asablariga sokinlik **halovat, orom** berardi. (*"Jimjitlik"*, 53- bet).

18. Bola qilgan ishi gunohligini bilmay jilmaydi. Bir chiroyli jilmaydi. **Beg'ubor, shirin** jilmayish edi bu. (*"Jimjitlik"*, 55- bet).

Og'zaki va yozma nutqda sinonimlarning katta amaliy ahamiyati bor. Sinonimlar nutqiy ta'sirchanlikka asoslanib, kitobxonning so'z boyligini oshiradi. Sinonimlar til lug'at sostavining qanchalik boy va rang-barangligini ko'rsatuvchi belgilardan biridir.¹ Ma'nodosh so'zlar leksemalarni o'rinsiz takror ishlatishga yo'l qo'ymaydi, badiiy nutq uslubining ravonligini ta'minlaydi, jummalarning ixcham tuzilishiga keng yo'l ochadi, semalarni o'rganish jarayonida chuqur fikr yuritishga imkon beradi.

Ma'nodosh so'zlar badiiy adabiyotda muhim tasvirlash vositalaridan biri hisoblanib, yozuvchi ular yordamida qahramonlarning xarakter-xususiyatlarini, voqea-hodisalarni, manzaralarni, badiiy tasvirlarni aniq, ravshan va jonli qilib ifodalay oladi.

Xullas, sinonimlar tildagi go'zallik va rang-baranglikni ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyatga egadir.

Har bir kitobxon o'z nutqini o'stirishi, o'z so'z xazinasini boyitishi uchun sinonimlarni va ularning qo'llanishini yaxshi bilishi, o'rganishi va bu so'zlardan unumli foydalana bilishi lozim.

¹ Pinxasov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya va frazeologiya. "O'qituvchi". – T , 1969y, 25b

1.2. Said Ahmad ijodida zid ma'noli so'zlarning qo'llanilishi

Tilda zid ma'noli so'zlarning, ya'ni antonimlarning mavjudligi badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashga va personajlar xarakter-xususiyatini ochib berishga yordam beradigan qulay vositalardan biridir. Antonimlar (yun. anti – qarshi, zid; onyma - nom¹). O'zaro zid va qarama-qarshi ma'noli til birliklari bo'lib, bu birliklar asosida antiteza hodisasi yuzaga keladi. Antiteza (yun. antithesis – qarama-qarshi qo'yish). Qiyoslanuvchi fikr, tushuncha kabilarni qarama-qarshi qo'yishdan iborat uslubiy qo'llanish² bo'lib, yozuvchi asarlari tahlili jarayonida ziddiyatga asoslangan badiiy nutqlarni aniqladik: *Bu voqeaga ko'p yillar bo'lgan. Ular ikkovining yoshi ham bir joyga borib qolgan. Birining **omadi kelgan**, biri **omadsizlik** azobini tortardi.* ("Jimjitlik", 23- bet). Ushbu misolda antonimlar shakliga ko'ra o'zakdosh³ (omad-omadsizlik) bo'lib, ikki inson umri o'zaro qarshilantirilgan.

Tilshunoslikda antonimlar bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Ularning til sathlaridagi o'rni, mohiyati, me'yor va vositalari o'rganilgan. Kontekst tarkibida fakultativ tarzda yuzaga chiquvchi antonimlarni okkazional antonimlar sifatida baholash va ularning turli nutq uslublaridagi o'ziga xos lingvostilistik, semantik – ekspressiv xususiyatlarini o'rganish, ularning paydo bo'lish asoslarini tahlil etish rus tilshunoslari L.A.Vvedenskaya, G.E.Goncharenkolar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da,⁴ hozirgacha o'zbek tilshunoslarining tadqiqot obyekti bo'lmagan.

Aslida okkazionalizm mahsuldor bo'lmagan model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o'zida qo'llangan so'z, individual-uslubiy neologizmdir.⁵ Okkazionallik leksik birliklarning o'zida tasodifiylik, nome'yor, nutq usulining ayni vaziyatda ishlatiladigan normativlik, so'z yasashlik

¹ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: "Fan", 2002, 16b

² Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: "Fan", 2002, 16b

³ Pinxasov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya va frazeologiya. "O'qituvchi". – T , 1969y, 26b

⁴ Baydadayeva G. Okkazional antonimlarni vujudga keliruvchi obyektiv va subyektiv omillar// O'TA, 2010y, №2, 92b

⁵ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: "Fan", 2002, 74b

xususiyatlarini mujassam etgan nutqiy ekspressiv birliklar ekan, ushbu qonuniyat okkazinal antonimlarda ham kuzatiladi va biz Said Ahmad asarlari tahlili jarayonida tildagi tayyor antonimik birliklardan foydalanmasdan, balki badiiy asarda tasvirning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladigan kontekstual antonimlardan ham o'rinli foydalangan badiiy nutqlarni uchratdik: *Bu dunyo shundoq bolam. Olam yaralibdiki, birovga baxt, birovga **alam** keladi.* ("Jimjitlik", 8- bet). Yozuvchi ushbu o'rinda baxt va alam leksemalarini o'zaro antonimik munosabatda qo'llagan. Baxt va alam leksemalarini lug'atlarda o'zaro antonim sifatida uchratmaymiz. Baxt leksemasining bosh ma'nosi hayot (turmush)dan to'la mamnunlik va bearmonlik holati (O`TIL, I, 178b) bo'lsa, alam leksemasining bosh ma'nosi esa ruhiy azob, iztirobdir. (O`TIL, I, 66b). Bunda adib shodlik va iztirob tushunchalarini badiiy nutqda kontekstual antonimik munosabatga kiritirgan. Bu esa nutqiy ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan.

Adib asarlarini o'rganish jarayonida yana bir necha o'rinlarda antonimlarni aniqladik: *Ular shu alpozda dam **tez**, dam **sekin** yurib pastlikka tushishdi. Hojimurod yalang oyoq, toshlardan yurolmay qiynalar, goh oyoq uchida, goh tovonni bilan yurib holdan toygan edi.* ("Jimjitlik", 47- bet). Ushbu misolda tez va sekin leksemalari antonimik munosabatga kirishgan va biz bu leksemalarni tahlilga tortamiz:

- a) sekin leksemasining ma'nosi norma deb qabul qilinganidan past sur'at bilan, imillagan holda; tez leksemasining ma'nosi norma deb qabul qilinganidan yuqori sur'at bilan, shoshilgan holda.¹
- b) ma'nolariga ko'ra: to'la antonim
- c) tematik guruhiga ko'ra: holat, usulni bildiruvchi antonim
- d) shakliga ko'ra: har xil o'zakli antonim
- e) tuzilishiga ko'ra: tub antonim
- f) so'z turkumlari nuqtayi nazaridan qaraganda ravish antonim

¹ Rahmatullayev Sh., Mamatov R., Shukurov R. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. T.: "O'qituvchi", 1980, 162b

Xullas, antonimlar ma'nosi (sememasi) strukturasida hamma vaqt umumiy sema bilan birga differensial sema ham bo'ladi. Xuddi ana shu sema o'zaro zid bo'ladi. Shunday ekan, ikki so'zning antonim yoki antonim emasligini faqat ularning semema strukturasini ochish (komponentli tahlil) asosidagina to'g'ri belgilash mumkin bo'ladi.¹

Antonimlar bir-biriga zid tushunchalar birligini ifoda etish bilan tilda stilistik vosita sifatida qo'llaniladi² va badiiy ta'sirchanlikni oshirishga xizmat qiladi, badiiy nutq uslubining ravonligini ta'minlaydi.

1.3. Said Ahmad asarlarida barqaror birikmalarning qo'llanilishi

Xalq donishmandligining mahsuli bo'lgan maqol, matal, idioma, ibora, hikmatli so'z kabi paremlar badiiy asar g'oya va maqsadini, personajlar ichki dunyosini ochishda, asar tilining shirali va ta'sirchan bo'lishida, emotsionalligi va musiqiyligini oshirishda muhim uslubiy vositahisoblanadi. Turli xalqlar tillarida bo'lgani kabi o'zbek tilida ham ana shunday obrazli ifodalarning roli katta.

Badiiy asarda uslubiy vosita sifatida personajlar xarakterini ochish, ularning turli holatlardagi ruhiyatini tasvirlashda matallarning ko'chma ma'nolari muhim estetik vazifa bajara olishi mumkin. Said Ahmad aynan ana shu usuldan ko'p o'rinlarda ustalik bilan foydalanadi.

Maqol va matal janrlarini bir-biridan ajratib turuvchi farqlardan yana biri shuki, har bir maqolda aniq bir hukm yotadi, bu hukm yo ijobiy, yo salbiy bo'lishi mumkin.

M: Og'zing to'la qon bo'lsayam, dushmaning oldida tupurma

Yomondan qoch-da qutul, yo ton-da qutul.

Mehmonni rizqi o'zidan oldin keladi.

Ikki fikr va muhokamaning bir-biriga muqoyasa yo'li bilan qo'yilishi – antiteza hodisasini maqollarda ko'p uchratamiz.

¹ O'zbek tili leksikologiyasi. T.: "Fan", 1981y, 252b

² Kamol F. Hozirgi zamon o'zbek tili// Leksikologiya. Fonetika. Grafika va orfografiya. Morfologiya. T.: 1957y, 81b.

Xalq qo'llasa – bor bo'ladur,

Xalq qarg'asa – xor bo'ladur.

Tilshunoslik nuqtai nazaridan olib qaralganda ham maqol-matal tipidagi paremalarda mushtarak va farqli tomonlar kuzatiladi.

Kambag'alni tuyaning ustida it qopadi - matalini olib ko'raylik.

Tuya baland bo'yli, katta hayvon, it esa tuyaga nisbatan ancha past, oyoqlari tagida qolib ketadigan kichik hayvon. Mantiqan u tuyaning tepasida o'tirgan odamni qopa olmaydi. Lekin shunday sharoit yuzaga kelganki, vaziyat kambag'alga qarshi, uning himoya imkoniyati ortiq darajada cheklanganki, amalga oshishi mumkin bo'lmagan vaziyatdagi holat ham yuzaga kelishi mumkin, ya'ni tuyaning ustida turgan odamni ham it qopishi mumkin.

Grammatik jihatdan tugallanganlik muammosi maqol va matallarni bir-biridan ajratib turuvchi asosiy belgilardan biri hisoblanadi. Bu masalada ham turlicha qarashlar mavjud bo'lsa-da, asosan, maqollar tugallangan fikrni ifodalab, grammatik shakllangan gap tarzida; matallar esa fikr va muhokamaning tugal natijasini emas, balki uning elementlarini ifodalab, grammatik jihatdan to'la shakllanmagan birlik tarzida namoyon bo'ladi, degan fikr ancha barqarordir. Bizningcha, ham ana shu fikr haqiqatga yaqin. Chunki maqol va matallarning grammatik jihatdan tugallangan-tugallanmaganligi undagi ifodaning ham, ya'ni tushunchaning tugallangan-tugallanmaganligini yuzaga chiqaradi.

Shu jihatdan olib qaralganda:

A) matallar grammatik tugallanmagan turg'un birikmalardir;

M: *Och qornim, tinch qulog'im*

B) maqollar grammatik jihatdan tugallangan mustaqil gaplardan tashkil topadi;

M: *yetti o'lchab, bir kes*

Masal ham maqol va matal kabi majoziy obrazlar orqali fikrni ixcham, lo'nda va ta'sirchan qilib ifodalashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Said Ahmad maqol, matal, masal va idiomalardan unumli foydalanib, asarning emotsional-ekspressivligini kuchaytira oladigan poetik vositalardan biriga aylantirgan.

“Ikki va undan ortiq soʻzlarning oʻzaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud boʻlgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi”¹ va iboralar, maqol-matallar, hikmatli soʻzlar barqaror birikmalar hisoblanadi.

Iboralar

Iboralar tuzilishiga koʻra soʻz birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan maʼno anglatadigan, nutq jarayonida yaratilmay, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lugʻaviy birlik² boʻlib, voqelikni obrazli tasvirlashda, uni kitobxon koʻzi oʻngida aniq va toʻla gavdalandirishda ularning oʻrni va ahamiyati beqiyosdir. Tilshunos olim Mamatov fikricha, iboralar tilning alohida birligi boʻlib, tuzilishiga koʻra erkin bogʻlanma yoki gapga teng, toʻliq yoki qisman semantik qayta shakllangan obrazli, turgʻun soʻz birikmalarini oʻz ichiga oladi.³ Iboralar hayotdagi voqea-hodisalarni kuzatish, jamiyatlardagi maqbul va nomaqbul harakat-hoʻlatlarni baholash, turmush tajribalarini umumlashtirish asosida xalq chiqargan xulosalarning oʻziga xos obrazli ifodalaridir.⁴ Umuman olganda, frazeologik maʼnoning hajmi leksik maʼnoning hajmiga nisbatan keng va va murakkabligi bilan ajralib turadi. Soʻz maʼnosida boʻlmagan, uchramagan komponentlar koʻp frazeologizmlar maʼnosida mavjud boʻladi.⁵ Yozuvchilar odatda tasvir maqsadiga muvofiq iboralarni tanlab qoʻllash bilangina kifoyalanib qolmaydilar. Balki qahramonlar tabiati, ruhiy holati, hayot tarziga moslab oʻzgartiradi va qayta ishlaydi. Shu tarzda xalq iboralari sayqallanib, yangi maʼno nozikliklari bilan toʻyinib boradi. Xalq iboralarini qayta ishlashning

¹ Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. (Akademik litseylarning 2-bosqich talabalari uchun darslik). T.: “Sharq”, 2002y, 103b

² Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. T.: “Fan”, 2002, 124b

³ Mamatov A. Oʻzbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. DDA. – T.: 1999y, 11b

⁴ Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T.: “Fan”, 2006, 53 b

⁵ Vafoyeva M. Oʻzbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning structural-semantik tahlili. Filol.fanlari nomzodi...diss.avtoref. – T., 2009, 17b

usullari, ularga yangicha rang va tus, yangicha ma'no talqini berishning yo'llari juda xilma-xildir. Bunga "umumtil iborasi zamiridagi ma'noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o'zgartirish va uning semantik-stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma'nolar kiritish kabi usullarni kiritish mumkin"¹ Frazologik iboralarni qayta ishlashning turli usullari B.Yo'ldoshev tomonidan keng o'rganilgan.² Tilshunoslikda frazeologizmlarning o'zgaruvchanlik xususiyatlari "struktural o'zgarishlar", "formal o'zgarishlar", "frazologik transpozitsiya", "leksik qayta shakllanish" kabi terminlar bilan atalgan. Tilshunos olimlar Mamatov va Boltayevalar fikricha, frazemalar transformatsiyasi termini frazemalardagi o'zgarishlarni to'liq qamrab oladi.³ Qahramonlarning tashqi qiyofasi bilan birga, ma'naviy dunyosini ham, psixologiyasini ham ishonarli va ta'sirli qilib tasvirlab berish maqsadida yozuvchilar frazemalardan keng foydalanadilar. Ayni paytda, ular frazemalarni qisman o'zgartirib qo'llaydilar yoki butunlay yangi individual-muallif frazemalarini ham yaratadilar. Tadqiqotimiz jarayonida adib asarlarida uchraydiga quyidagi frazeologik transformatsiya shakllarini uchratdik:

Frazema tarkibidagi muayyan so'zlarni almashtirish:

1. Tilning rivojlanish bosqichida frazemalar tarkibidagi u yoki bu komponent faol ifoda qiluvchi yangi leksemalarga almashtirilishi mumkin. M.Vafoyeva fikricha, frazemalar tilda tayyor, yaxlit holda mavjudligi sababli, bir qarashda ularning struktural tartibi o'zgarmasdek tuyulsada, ammo so'zlashuv nutqida, ayniqsa, badiiy asarlarda, publisistik nutqda oddiy qo'llanishdan tashqari yozuvchining badiiy mahorati tufayli ma'lum tashqi struktural va ichki –semantik o'zgarishlarga uchraydi. Natijada yangi-yangi ma'no nozikliklariga ega bo'ladi.⁴ Masalan, *Tolibjon "Luqmonov yolg'on-yashiq gaplar tarqatib, yaxshi-yaxshi odamlarni badnom qilayotganini"*

¹ Shomaqsudov A va boshq. O'zbek tili stilistikasi.-T.: 1974, 70b

² Yo'ldoshev B. Frazologik uslubiyat asoslari.-Samarqand, 1999

³ Mamatov A., Boltayeva B. Frazemalar transformatsiyasi // O'TA, 2012y, №1, 94b

⁴ Vafoyeva M. O'zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili. Filol.fanlari nomzodi...diss.avtoref. – T., 2009, 19b

aytgandayoq Luqmonovning **qorniga qoziq qoqqandek bo'lgandi**. ("Jimjitlik", 11- bet). Ushbu misolda yozuvchi o'ta salbiy ma'no ottenkasiga ega bo'lgan frazemani muayyan so'zni almashtirish orqali badiiy yumshatish ifoda semasini qo'llagan. Adib bu ibora orqali qahramonning boshliqlarga nisbatan munosabatini kinoya bilan ifodalaydi.

2. Luqmonov **beti qattiqroq odam** edi. Uni hozirgina minbardan sharmanadalarcha tushirib yuborishdi. Profsoyuz lideri bilan tayyorlash ministri sha'niga juda xunuk, hatto og'izga olib bo'lmaydigan gapni minbardan turib baralla aytganida zalda to'polon bo'lib ketdi. ("Jimjitlik", 10b) yoki Luqmonovga gap kor qilmasdi. U **beti qotib ketgan odam** edi. Oqsoqolning bu gaplari uning yuziga tushgan achchiq tarsaki edi. Bu gapning unga mutlaqo aloqasi yo'qdek u qulog'idan kirib, bu qulog'idan chiqib ketgan edi. ("Jimjitlik", 12b) Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" da bet bilan bog'liq somatik frazemalar ichida yuqoridagi ikki iborani uchratmaymiz. Bu ikki ibora ma'nosi beti chidamoq frazemasining ifoda semasiga tengdir. Beti chidamoq iborasi nomus qilmaslik, uyalmaslik, andisha qilmaslik kabi ma'nolarda qo'llaniladi.¹ Yozuvchi ushbu ibora o'rnida beti qattiqroq odam, beti qotib ketgan odam frazemalarini qo'llagan. Bu esa qahramonning xarakter-xususiyatini ochib berishga xizmat qilgan.

Frazema tarkibiga muayyan so'zlarni va so'z birikmalarini qo'shish

Umumtil frazemalari tarkibiga turli ekspressiv ottenkalar hosil qilish va ma'noni kuchaytirish uchun leksemalar qo'shib ishlatilishi bilan ham frazemalar o'zgaradi. Masalan: *U uyiga qaytarkan, **dili sira yorishmaydi**. "Rais kelguncha reviziya bossa nima bo'ladi? Buxgalterni xabardor qilib qo'ysinmikan? Yo'g-e, bilsa dili og'riydi. Axir, u unaqa odam emas, halol..."* (Jimjitlik, 37b) Xalqimizda uchraydigan dili yorishmoq iborasini ushbu o'rinda adib inkor ma'nosida qo'llagan va ushbu ma'no bo'yog'ini oshirish maqsadida ibora tarkibiga sira leksemasini qo'shgan. Frazema tarkibiga so'z

¹ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. T.: "O'qituvchi", 1978, 37b

birikmalarini qo'shish matnning umumiy ma'nosini o'zgartirmaydi, aksincha, ifodaning ta'sirchan va e'tiborli, emotsional-ekspressiv bo'lishini ta'minlaydi: *Tog'aning dardi bedavo. Ichini kuydirgan cho'g' o'tsiz tutab butun vujudini jizg'anak qilayotgandek edi.* ("Jimjitlik", 40b) Anglashilmoqdaki, ichi pishmoq (ruhan bezovta bo'lmoq, dilgir bo'lmoq¹) frazemasi tarkibi ichini kuydirgan cho'g' birikmasi bilan kengaytirilgan. Qo'shilgan so'z birikmasi faqatgina frazemaning tarkibini kengaytiribgina qolmasdan, balki uning ifodaviy xususiyatini oshiradi, matnning umumiy ma'nosi kuchayadi, stilistik mahsuldorlik oshadi.

Frazelogik birliklarda uchraydigan o'zgarishlardan yana biri frazema tarkibida juft va takroriy so'zlarni qo'llash usuli bo'lib, adib asarlarida ham ularni uchratdik: *Tog' so'qmoqlaridan qatnab, issiq-sovug'idan xabar olib turadi.* ("Jimjitlik", 14b) Ushbu misolda juft so'zning har ikkala qismi ham yakka holda mustaqil ma'no anglatgan.

Kontaminatsiya hodisasi

Bu hodisa ham iboralarining o'zgarishida va shu asosda yangi iboralarining shakllanishida muhim vositalardan biri hisoblanadi. G.A.Selivanov "frazelogik kontaminatsiya sekin shakllanadigan jarayon bo'lishiga qaramay, tilning frazeologik tarkibi boyishida mahsuldor usullardan biridir"² deb ta'kidlaydi. Kontaminatsiyaga ko'ra, ikkita yaqin ma'noli, ammo turli leksik tarkibli frazeologizmlar yoki ularning qismlarini birlashtirish asosida yangi frazeologizmlar shakllanadi. Bunda ikki frazeologizmning qo'shilishi oqibatida frazeologizmlarning ichki shakli buziladi va yangi ichki shakl yuzaga keladi. Bu asosda shakllangan frazeologizm yangi ma'noli frazeologizm bo'lmaydi, balki frazeologizmning ma'no o'ttenkasi kuchayadi, emotsional-ekspressivligi oshadi, stilistik imkoniyatlari kengayadi.³ Masalan: *Yaraysan. Yaraysan oshnam. O'zim yordam beraman. Burningni yerga ishqab ishlataman. Chet ellarda yurib, Ko'zi pishgan odamsan.* ("Jimjitlik", 30b)

¹ Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. T.: "O'qituvchi", 1978, 117b

² Mamatov A., Boltayeva B. Frazemalar transformatsiyasi // O'TA, 2012y, №1, 96b

³ Mamatov A., Boltayeva B. Frazemalar transformatsiyasi // O'TA, 2012y, №1, 96b

Frazemik kontaminatsiya frazemalarni leksik o'zgartirishning bir yo'li, shuningdek, yozuvchi tili frazemalarining ham boyishi va rivojlanishi, turli grammatik o'zgarishlarga uchrab, har xil frazemalar yasallishining muhim omillaridan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Said Ahmad asarlarini o'rganish jarayonida yozuvchi uslubiga xos maxsus yaratilmalar, ya'ni individual-muallif iboralarini uchratdik. Okkazional frazeologizmlar individual-muallif frazeologizmlaridir.¹ Masalan: *Nurmat tog'ani g'alati odam, deding. To'g'ri, g'alati odam. U birovga ishonmaydi. Hammadan shubhalandi. Ertaga nima bo'ladi, uni sira qiziqitirmaydi. **Ko'rgan kuniga kul tortib yuripti.*** ("Jimjitlik", 35b) Ushbu misoldagi ko'rgan kuniga kul tortib yurmoqlik iborasi yozuvchi uslubiga xos maxsus individual yaratilmadir. Individual iboralar yozuvchining uslubiga xos maxsus yaratilmalardir. Bunday iboralar yozuvchining so'z tanlash mahoratiga bog'liq holda, asarning nutqiy ta'sirchanligini, jozibasini oshiradi: *Kampir to'qsondan oshgan, **halimdek hilvirab qolgan.** U Tolibjonning o'gay onasi.*²

Ushbu parchada e'tiborimizni tortadigan individual ibora "halimdek hilvirab qolgan" birikmasidir. "Halim" leksemasining bosh ma'nosi – *yumshoq, yuvosh, muloyim, beozor, sabr-toqatli*³.

"Halimdek hilvirab qolgan" iborasidagi leksemaning bosh ma'nosidan "qarimoq" ma'nosi o'sib chiqqan.

M. Vafoyeva fikricha frazeologik birliklar uslubiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan til birligi bo'lib, obrazli tasviriy vosita sifatida badiiy asar tilida keng qo'llanadi va uni boyituvchi eng muhim vositalardan biri sanaladi, ular matnda ifodalanayotgan emotsional-ekspressiv ta'sirchanlikni kuchaytiradi, ifoda etilayotgan tushunchaga aniqlik kiritadi.⁴

Shunday qilib, tilimizning boyligi hisoblanmish frazeologizmlarning uslubiy va shakllanish imkoniyatlari keng bo'lib, ular mohir san'atkor

¹ Mamatov A., Boltayeva B. Frazemalar transformatsiyasi // O'TA, 2012y, №1, 97b

² Said Ahmad. Jimjitlik. "O'zbekiston" nashriyoti. 2008. 5-b.

³ O'TIL, V, 492-b.

⁴ Vafoyeva M. O'zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning structural-semantik tahlili. Filol.fanlari nomzodi...diss.avtoref. – T., 2009, 21b

qo'lida har gal yangi emotsional bo'yoq kasb etadi, o'z ta'sir kuchini yanada orttiradi. So'z ustalari frazeologizmlardan stilistik maqsadlarda foydalanish uchun ularning ma'nolarini yangilashga, uslubiy imkoniyatlarini kengaytirishga intiladilar. Ular tilimizdagi frazeologizmlardan foydalanibgina qolamy, shular asosida yangi frazeologizmlarni ham yaratadilar. Bu jarayon umumtildagi iboralarning leksik tarkibi o'zgartirilishi, ularning ma'no va stilistik vazifalarini oshirish uchun turli til qonun-qoidalaridan foydalanish, ya'ni umumtil strukturasini til qonun-qoidalari asosida o'zgartirib, ikkinchi tur struktura hosil qilishi mumkin. Bu tilimizning yanada jozibador, ma'noli va ravon bo'lishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, tilning frazeologik tarkibi boyib boradi.

1. Tog' so'qmoqlaridan qatnab, issiq-sovug'idan xabar olib turadi.
("Jimjitlik", 14b)

2. – Ha, kitob ham o'lsin odamdan aziz bo'lmay! Dunyoni suv bossa, to'pig'ingga chiqmaydi-ya! Tur o'ringdan, qidir u yaramasni!
("Jimjitlik", 21b)

3. Bu jonivorlarni ko'paytirguncha ona sutim og'zimga kelgan.
("Jimjitlik", 25b)

4. Bugun Mirvali mehmon olib keldi, juda yaqin qadrdoni emish, yaxshiroq tayyorgarlik ko'ring, deb tayinlashganidan u tishining kavagida asrab yurgan bedanalarni ziralab tovoqqa bosdi. ("Jimjitlik", 26b)

5. –Bu gaping durust. Ol, ovqatga qara. Nurmat tog'am rosa pazanda. Ammo fe'lli odam. Jiniga yoqmagan kishi bilan choy ekan-ku, sovuq suv ham ichmaydi. ("Jimjitlik", 25b)

6. –Sanobar, qo'ying, qo'ying, meni bilasiz-ku, xudo urgan to'g'ri odamman.

Unaqa bayt-u g'azallarni aytishni bilmayman. ("Jimjitlik", 34b)

7. Nurmat tog'a hayron bo'ladi. Chaqirsa ovoz yetadigan joyga ikki kunga ketgan odamni ham tantana bilan kuzatishadimi? ("Jimjitlik", 37b)

Hikmatli soʻzlar (aforizmlar) va maqollar

Aforizm grekcha soʻzdan olingan boʻlib, aphorismos – qisqa, hikmatli soʻz ¹maʼnolarini anglatadi. Hikmatli soʻzlarga adabiyotlarda turlicha taʼriflar berib oʻtilgan:

1. Aforizm – aniq va ixcham ifodalanib, tugal fikrni anglatuvchi hikmatli soʻzlar;²
2. Aniq va ixcham shaklli, chuqur mazmunli, muallifi aniq gap;³
3. Maʼlum shaxslar tomonidan aytilgan yoki asarlarida ishlatilgan ixcham, maʼnodor, ishlatishga qulay va quyma fikrlardir.⁴

Adabiyotshunos olim Z.Toshpoʻlatov oʻz tadqiqotida aforizmlar tabiati haqida bildirilgan turlicha qarash va mulohazalarning maʼlum sabablarini koʻrsatib oʻtadi:

Birinchidan, ushbu janr dunyo xalqlarining barchasida mavjud va ular haqida jahon paremiologiyasida turlicha fikr-mulohazalar bildirilgan.

Ikkinchidan, aforizmlarning badiiy shakli masalasida yagona hukmron fikr, yagona konsepsiya yoʻq.

Uchinchidan, koʻpchilik olimlar aniq muallifga ega boʻlgan chuqur mazmunli, ixcham ifoda shakliga ega boʻlgan hikmatli gaplarni aforizm deb hisoblasalar, ayrimlar aniq muallifga ega boʻlmagan qanotli iboralarni ham ushbu janr tarkibiga kiritadilar.⁵

Nutqqa tayyor holda olib kirish mumkin boʻlgan bunday soʻzlarni Said Ahmad asarlarida ham uchratdik: *Ezmaligim uchun kechirasizlar, Alisher Navoiyni qariganda oʻqish kerak ekan. Hozir muk tushib Navoiyni oʻqiyapman. Mana eshiting, u nima deydi: “Oqil kishi rostdan oʻzgani demas, hamma rost ham degulik emas”. Eshityapsizmi, aqlli odam faqat rost gap aytadi, lekin rost ekan, deb hamma gapni ham aytavermaslik*

¹ Homidiy H, Abdullayeva Sh, Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lugʻati. T.: “Oʻqituvchi”, 1967, 35b

² Homidiy H, Abdullayeva Sh, Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lugʻati. T.: “Oʻqituvchi”, 1967, 35b

³ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. T.: “Fan”, 2002, 144b

⁴ Yoʻldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlilli asoslari. T.: “Fan”, 2006, 54 b

⁵ Toshpoʻlatov Z. Aforizmlarning janr xususiyatlari va badiiyati. : Filol.fanlari nomzodi...diss.avtoref. – T., 2006, 8b

kerak, deydi. Ko'rdingizmi, Usmonov shu yerda yoshligiga borib, aytish shart bo'lmagan gaplarni ham aytib yubordi, buning uchun uni kechirish kerak. U keyin o'zini o'nglab oladi. ("Jimjitlik", 11- bet).

O'zbek xalq donishmandligi mahsuli bo'lmish maqollarga adabiyotlarda quyidagicha ta'rif berilgan:

1. Grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, kichik, ixcham, o'tkir mazmunli, ko'chma ma'noda yoki ham ko'chma ma'noda ham o'z ma'nosida qo'llanadigan hikmatli xalq iboralaridir;¹

2. Chuqur ma'noli, tuzilishi gapga teng, alohida ritmik-melodik xususiyatlarga ega bo'lgan folklor janri;²

3. Turmush tajribalari zaminida tug'ilgan va xalq donoligini ifodalagan qisqa, ko'pincha she'riy shakldagi hikmatli so'zlar, chuqur ma'noli iboralar;³

4. Grammatik jihatdan tugallangan fikrni bildiruvchi, o'tkir mazmunli, faqatgina ko'chma ma'noda ishlatiluvchi qisqa, ixcham xalq hikmatlari⁴

Adib asarlarini o'rganish jarayonida ham bir qancha o'rinlarda xalq donishmandligining mahsuli bo'lmish pand-nasihat ruhidagi purma'no maqollarni uchratdik:–**Yetim qo'zi asrasang og'zi burning moy yetar, yetim o'g'il asrasang og'iz – burning qon yetar**, deb shuni aytadi-da! Hoy, nega shumshayib o'tiribsanlar, echkilarni qayirib kelmaysanlarmi, yelini to'lib ketdi-ku! Muncha peshonam sho'r bo'lmasa...("Jimjitlik", 22- bet). **Kunda yegan och, yilda yegan to'q**, deb shuni aytadi-da. ("Jimjitlik", 56- bet).

Yozuvchilarning til vositalaridan foydalanishdagi individual ijodiy mahorati turlichadir. Badiiy asar tili va yozuvchi uslubini o'rganishda, ko'pincha, leksik, frazeologik vositalar, badiiy tasvir vositalari, ijodkorning

¹ Berdiyev H, Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. T.: "O'qituvchi", 1984, 11b

² Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: "Fan", 2002, 62b

³ H.Homidiy, Sh.Abdullayeva, S.Ibrohimova. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. T.: "O'qituvchi", 1967, 106b

⁴ B.Jo'rayeva. Ibora va maqolda idiomalashuv // O'TA, 2010y, №6, 107b

okkazional soʻz va ibora yaratish mahorati kabi masalalar oʻrganiladi¹–yu, ularning fonetik va grammatik xususiyatlari eʼtibordan chetda qoldiriladi. Lekin Said Ahmad asarlari tahliliga jiddiy yondashilsa, tilning barcha sathlari uchun ham boy poetik material bera olishi kuzatiladi.

Said Ahmad asarlari tilini tahlil etish jarayonida yozuvchi uslubiga xos individual iboralarga ham duch kelamiz.

Individual iboralar yozuvchining uslubiga xos maxsus yaratilmalardir. Bunday iboralar yozuvchining soʻz tanlash mahoratiga bogʻliq holda, asarning nutqiy taʼsirchanligini, jozibasini oshiradi.

Asarni tadqiq etish jarayonida ijodkor qalamiga mansub individual maxsus yaratilmalarga duch keldik: *Kampir toʻqsondan oshgan, halimdek hilvirab qolgan. U Tolibjonning oʻgay onasi.*²

Ushbu parchada eʼtiborimizni tortadigan individual ibora “halimdek hilvirab qolgan” birikmasidir. “*Halim*” leksemasining bosh maʼnosi – *yumshoq, yuvosh, muloyim, beozor, sabr-toqatli*³.

“Halimdek hilvirab qolgan” iborasidagi leksemaning bosh maʼnosidan “qarimoq” maʼnosi oʻsib chiqqan.

Adib metafora, metonimiya, sinekdoxa, oʻxshatish, ramz, kinoya va boshqa tasviriy vositalardan unumli foydalangan. Yozuvchi asarlarida keng qoʻllangan uslubiy vositalardan biri metaforadir. Badiiy tildagi obrazlilikni yuzaga chiqarishda, voqea-hodisalarning aniq, ishonarli va yorqin tasvirlanishida metaforaning oʻrni beqiyosdir.

Said Murod ijodida jonli metaforalar anchagina kuzatiladi. Ular personajlarning ruhiy holati, tabiat tasviri, qahramonlarning voqelikka munosabatini obrazli ifodalashda muhim uslubiy vosita vazifasini oʻtagan.

M: *Dalalarim entikdi.*

Dalalarim uygʻondi. Dalalarim koʻz ochdi.

Dalalarim meni imladi, dalam meni chorladi.

¹ Aliyev A.Yu. Abdulla Qodiriy «Obid ketmon» qissasining baʼzi til xususiyatlari // Oʻzbek tilshunosligining aktual masalalari. – T., 1985.

² Said Ahmad. Jimjitlik. “Oʻzbekiston” nashriyoti. 2008. 5-b.

³ OʻTIL, V, 492-b.

Insonga xos bo'lgan *entikdi, uyg'ondi, ko'z ochdi, imladi, chorladi* kabi harakatni bildiruvchi so'zlar jonsiz narsaga – dalaga nisbatan qo'llanib, kuchli emotsionallikni yuzaga chiqaradi.

Badiiy asar tilida keng qamrovli til birliklari – fonetik, leksik, grammatik va majoziy vositalarni kuzatish mumkin. Shu bilan birga ijodkorning so'z boyligidan o'ziga xos tarzda foydalanishi, morfologik shakllar va sintaktik qurilmalarni tanlashi va boshqa jihatlarida yozuvchining individual uslubi ham yuzaga chiqadi.

Ma'lumki, har bir lingvistik vosita badiiy nutqda nominativ vazifa bajarish bilan birgalikda uslubiy vosita ham bo'la olishi mumkin. Sintaktik figuralar jonli til tabiatidan kelib chiqadigan nutqiy hodisalar bo'lib, badiiy nutqda muayyan uslubiy maqsadni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Chunki badiiy asarda til birliklari muallif tomonidan kommunikativ ta'sir maqsadida tanlab olinadi va shu jarayonda adibning individual faoliyati namoyon bo'ladi.

1.3. Said Ahmad asarlarida ko'chma ma'noli so'zlarning qo'llanilishi

Ko'chimlar deyilganda “adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatilishi”¹ nazarda tutiladi. So'z ma'nosining ko'chish jarayonlari turli ko'rinishlarda voqe bo'ladi, bu jarayonlar va ularning natijalari sifatida yuzaga keladigan hodisalar, bu hodisalarning turlari, o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalar o'zbek tilshunosligida ancha batafsil o'rganilgan. Ko'chimlar deyarli ko'pchilik adabiyotlarda “troplar” atamasi ostida o'rganilgan. Ayrim adabiyotlarda ko'chimlar quyidagicha tasnif qilingan:

1. *So'z ma'nosining miqdoriy ko'chishiga asoslangan troplar:*

- a) giperbola
- b) meyozis

2. *So'z ma'nosining sifatiy ko'chishiga asoslangan troplar:*

- a) metafora
- b) metonimiya
- c) ironiya²

Qolgan tasviriyy vositalar mazkur ko'chimlarning ko'rinishi sifatida beriladi: simvol, jonlantirish, epitet, apastrofa – metaforaning; perifraza, sinekdoxa, allegoriya, epitet – metonimiyaning; antifraza, sarkazm – ironiyaning; litota – meyozisning ko'rinishlaridir.³ Badiiy asarni tahlilga tortganda troplar deb nomlanuvchi tasviriyy vositalarning deyarli barchasining asosida o'xshatish, chog'ishtirishdan iborat mantiqiy tushuncha yotganligini unutmash kerak.

Insonning olamni bilishda o'xshatishning o'rni beqiyosdir. Doimo kuzatilayotgan narsa va hodisa oldin o'zlashtirilgan narsa va hodisaga qiyoslanadi; ular o'rtasidagi o'xshashlik oldingi nomning yangi narsa va

¹ Shomaqsudov A. va boshq. O'zbek tili stilistikasi. – T.: 1974, 236b

² O'rinboyev B va boshq. Badiiy tekstning lingvistik tahlili. –T.: 1990, 29-30b

³ Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T.: “Fan”, 2006, 65 b

hodisa uchun ham ishlatilishiga sabab bo'ladi. Tilda ilgari mavjud bo'lgan nomning muayyan o'xshashlik asosida yangi ma'no bildirish uchun qo'llanilinishi oddiy nominativ funksiyasiga bajarmaydi, balki tinglovchiga ta'sir etish (ekspressiv) vazifani ham bajaradi, tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Ana shunday ko'chimning bir turi metaforadir.

Ma'lumki, ko'chmlarning eng keng qo'llanuvchi turi metafora nutqda ma'lum stilistik maqsad uchun xizmat qiladi. So'zlarni metaforik ma'noda qo'llashning asosiy vazifasi nutqning obrazlilikini, tasviriyligini oshirish bo'lsa, shu obrazlilik va tasviriylilik matnda yuzaga keluvchi emotsional-ekspressivlik konnotativ ma'nodir.¹ Demak, metafora konnotatsiyani yuzaga chiqaruvchi tasviriyl vositalardan biri sifatida ahamiyatli. Said Ahmad asarlarida ham nutqning ta'sirchanligini, obrazlilikini oshirishda metaforadan unumli foydalaniladi.

Metaforalar haqidagi nazariyl qarashlar qadimgi davrlardayoq mavjud bo'lgan. XX asrning so'nggi choragida ma'no ko'chishining usullaridan biri hisoblangan bu hodisaning inson kognitiv faoliyatiga ham xos ekanligi haqidagi qarashlar ilgari surila boshladi. Bunday qarashlarning shakllanishida, xususan, o'z tadqiqotlarida metaforaga antropologik nuqtayi nazardan yondashgan M.Osborn, V.Fon Gumboldt, J.Jejns, E.Kassirer, N.F.Alifirenko, J.Lakkof, M.Jonson kabi olimlarning fikrlari asosiy o'rinni egallaydi.

Amerikalik tadqiqotchi J.Jejns mavhum konseptlar konkret metaforalar yordamida shakllanishini ta'kidlab, noma'lum va notanish predmetni tasavvur qilishda bizga juda yaxshi tanish bo'lgan hamda sensor hissiyotlarimiz bilan bog'liq bo'lgan obrazni tanlay olish o'rinli metaforani yuzaga keltirishini ta'kidlagan edi.

O'tgan asrning so'nggi choragida kognitiv tilshunoslikning taniqli vakili bo'lgan J.Lakkof hamda mashhur faylasuf M.Jonson tomonidan

¹ Maxsumova S. Metaforalar orqali konnotativ – pragmatik ma'noning hosil bo'lishi. (Erkin Vohidov she'rlari misolida) O'TA, 2009/ 5 son, 94b

yaratilgan metaforalar to'g'risidagi tadqiqot bu boradagi qarashlarning tub burilishiga sabab bo'ldi. Mazkur tadqiqotchilar kognitiv (konseptual) metaforalar nazariyasiga asos solib, metaforalar faqat til hodisasi bo'ligina qolmay, inson tafakkurining ham ajralmas qismi ekanligini chuqur yoritib berdilar.¹

Ma'lumki, metafora yunoncha so'z bo'lib, metaphora – ko'chirish, ko'chirma, istiora demakdir.² Metafora hosila ma'no yuzaga kelishi hodisalarining eng faoli hisoblanadi. U tilshunoslikda qayd etilishicha, hosila ma'no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlari o'zaro o'xshash kelishiga asoslanadi.³ Bizga ma'lumki, metaforada ma'lum predmet yo voqea – hodisaning biron tomoni yoki ayrim belgisi bilan boshqa predmet yo voqea – hodisaning o'xshashligi aniqlanadi. Bunday holda predmetlarning rang, shakl, harakat – holat xarakteri, o'rin va paytga munosabati jihatdan o'xshashligi asoslanadi. Metaforada bu so'z ma'nosi o'zgaradi, tushuncha yo tasavvur esa tamoman o'zgarmay, balki uning dastlabki ma'lum belgisi qolgan bo'ladi.⁴ Metafora - obyektiv yoki subyektiv borliqdagi o'xshashlikning lisoniy aksi bo'lmish mutanosib semalar asosida bir narsa nomining ikkinchi bir narsa nomi o'rnida qo'llanishidir.⁵ Kognitiv tilshunoslikning taniqli vakili bo'lgan J.Lakkov hamda mashhur faylasuf M.Jonson fikricha, metaforalar nafaqat kundalik hayot, nafaqat til, balki tafakkur va faoliyatimizga ham kirib boradi. Bizning kundalik tushunchaviy tizimimiz ham o'z mohiyatiga ko'ra metaforikdir.⁶ D.Xudoyberganova tasnificha metaforalar:

- a) so'z shaklidagi metaforalar;
- b) so'z birikmasi shaklidagi metaforalar;
- c) gap shaklidagi metaforalar;

¹ Xudoyberganova D. Matnning mazmuniy tarkibidagi metaforalar. O'TA, 2012/ 1son, 35b

² Pinxasov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya va frazeologiya. "O'qituvchi". – T , 1969y, 12b

³ Mirtojdiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. Toshkent, 2010, 94b.

⁴ Pinxasov. Ko'rsatilgan asar. 12b

⁵ Qobuljonova G. Metafora va o'xshatish. O'TA, 1999/ 5 son, 53b

⁶ Xudoyberganova D. Matnning mazmuniy tarkibidagi metaforalar. O'TA, 2012/ 1son, 35b

d) mikromatn shaklidagi metaforalar kabi tasnif qilingan.¹

Biz ham D.Xudoyberganova tasnifiga asoslangan holda Said Ahmad asarlarida uchraydigan metaforalarni quyidagicha tasnif qildik:

I. Soʻz shaklidagi metaforalar

Kognitiv soʻz- metaforalar asosan harakat va belgi bildiruvchi soʻzlar semantikasidan anglashilib, oʻzida qiyoslanayotgan predmet, hodisa haqidagi tushunchaning implitsit tarzida ifodalaydi.² Quyida shu kabi soʻz – metaforalarga asardan misollar keltiramiz. *Pul yoʻq. Bir tiyin ham yoʻq. Hammasini rais **supurib ketgan.***(*Jimjitlik*”, 38b) Supurmoq leksemasining bosh maʼnosi supurgi bilan chang – toʻzon, axlat va sh.k dan tozalamoq, axlat va sh.k. narsalarni sidirib olmoq, toʻplamoqdir.(OʻTIL, III, 589b) Ushbu misolda supurmoq leksemasining yoʻq qilmoq, yoʻqotmoq, barham bermoq maʼnolari (OʻTIL, III, 590b) anglashilgan.

II. Soʻz birikmasi shaklidagi metaforalar

Soʻz birikmasi shaklidagi metaforalar matn referentlari va lisoniy belgi oʻrtasida mazmuniy shartlanganlik vaziyatini yuzaga keltiradi.³ Masalan: 1.*Aferist u. Yomonam **shayton** odam. Lyuboyni aldaydi.* (“*Jimjitlik*”, 30b) Shayton arabcha soʻzdan olingan boʻlib, iblis; jin, ajina maʼnolarini bildiradi. Shayton leksemasining bosh maʼnosi odamlarni din yoʻlidan ozdiruvchi, ularni gunohga, jinoyatga, razolatga boshlovchi yovuz ruh yoki yovuz ruhlarning boshligʻi, iblis (OʻTIL, IV, 534b) *Yomonam **shayton** odam.* misolidagi shayton leksemasi bosh maʼnodagi ayyorlik belgisi oʻxshatish asosida maʼno koʻchirilgan. Bu yerda shayton leksemasi ayyor, quv odam; aldamchi maʼnolarini ifodalab kelgan. 2. *Boʻlmas –ov. Axir, bu suvlar **togʻ etagidagi** qanchalab oʻrmon-u oʻrmonchalarni sugʻoradi. Quritib qoʻyasan – ku.* (“*Jimjitlik*”, 31b).Etak soʻzining bosh maʼnosi kiyimning pastki, osilib turadigan keng qismi. (OʻTIL, V, 59b)Etak leksemasining bosh maʼnosidagi pastki qism maʼnosi oʻxshashlik belgisi asosida koʻchirilgan.

¹ Xudoyberganova D. Matnning mazmuniy tarkibidagi metaforalar. OʻTA, 2012/ 1son, 36b

² Xudoyberganova D. Matnning mazmuniy tarkibidagi metaforalar. OʻTA, 2012/ 1son, 37b

³ Xudoyberganova D. Matnning mazmuniy tarkibidagi metaforalar. OʻTA, 2012/ 1son, 37b

Bosh ma'nodan tog', adir, balandliklarning pastki qismi; pastki qismidagi joy, maydon (O'TIL, V, 60b) ma'nosi o'sib chiqqan.

III. Gap - metaforalar

Said Ahmad asarlari tahlili jarayonida yozuvchining tildagi tayyor birliklardan metaforik mazmun sifatida foydalangan gap - metaforalarni uchratdik: *Faqat yoshligiga borib picha **qizishib ketdi**, xolos. Vaqtiki kelib, **sovib, gapni orqa- o'ngiga qarab aytadigan bo'lib** qoladi.* ("Jimjitlik", 11b)

Gap – metaforalar bir vaziyat belgilari asosida ikkinchi vaziyat belgilari haqidagi hukmga asoslanadi. Bunday gaplar ikki qatlamli semantik tuzilishga ega bo'ladi: tashqi mazmun va ichki mazmun.¹ Masalan: *U Mirvalining bolalik yillarini endi aniq ko'z oldiga keltira boshladi. Juda sho'x bola edi. Mushtlashishga o'ch, **o'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini oladigan simobdek beqaror edi. Endi quyilib qolgandir.*** ("Jimjitlik", 17b). Ushbu mikromatnda Mirvalining sho'xlik xarakter- xususiyati ichki mazmunga ishora qilyapti.

IV. Matn – metaforalar

Matn – metaforalarga xos bo'lgan xarakterli xususiyat shundaki, unda matn subyektning metaforik ma'noda qabul qilinishi matndan anglashilgan makropropozitsiyaning ham o'quvchi ongida metaforik ma'noda xarakter kasb etishiga olib keladi. ² Masalan, quyidagi mikromatnda "hukmronlik" semasi metaforik mazmun kasb etgan. *Shu topda Mirvalining vujudida vahshiy bir kuch g'alayon qilardi. Kimnidir otib tashlagisi, kimnidir qo'llari og'riguncha do'pposlagisi, nimalargadir o't qo'yib yuborgisi kelardi. Mirvali yer-u ko'kka sig'masdi. Baqirgisi, yugurgisi, boshini devorlarga urgisi kelardi. Umr bo'yi aytganini qildirgan, bir og'iz so'ziga o'nlab odamlar bab – baravar labbay deb turgan, ertalab uyg'onganda keksadir, yoshdir salomga keladigan, suv deganda daryoni boshlab keladiganlar oldida beburd bo'lib qolaveradimi?* ("Jimjitlik", 210b)

¹ Xudoyberganova D. Matnning mazmuniy tarkibidagi metaforalar. O'TA, 2012/ 1son, 38b

² Xudoyberganova D. Matnning mazmuniy tarkibidagi metaforalar. O'TA, 2012/ 1son, 39b

Metaforalar nutqiy ta'sirchanlikni oshirib, kitobxon oldida asarning jozibasini yanada oshiradi. Asarning nutqiy ta'sirchanligini shakllantirish, kitobxon oldidagi jozibasini yanada oshirishi adib mahoratiga bog'liqdir. Said Ahmad asarlari tahlili jarayonida metaforalardan unumli foydalanganligining guvohi bo'lamiz. Asarda uchraydigan metaforalar asarning badiiy qimmatini yanada oshirib, yozuvchining kitobxon oldidagi mahoratini ochib bergan.

Metonimiya bu so'z yunoncha metonymia – yangi nom qo'yish, nomini o'zgartirish demakdir. Metonimiyada biror predmet yoki voqea - hodisaning nomini aytganda shularga o'zaro bog'liq bo'lgan ikkinchisi anglashiladi, bir nom orqali ikkinchisi ifoda etiladi. Bunda predmetlarning ichki yoki tashqi tomonlarining o'xshashligi ko'zda tutilmaydi.¹ Metonimiya ham qiyosga asoslanadi. Faqat “metaforada bir-biriga o'xshash predmetlarning belgilari qiyoslansa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo, umuman bir-biridan farq qiluvchi (bir-biriga o'xshamagan) predmetlarning belgilari chog'ishtiriladi”² Adib asarlarini o'rganish jarayonida quyidagi o'rinlarda metonimiya usuli asosida ma'no ko'chirilib, uslubiy bo'yoqdorlik oshirilgan badiiy matnlarni aniqladik: 1.- *Abdug'ani aka mehmon olib boraman, **yuqoriga joy qildirib qo'y**, deb tayinlaganlar.- Pichirlab gapirdi Rasulbek. – Mehmon Toshkentdan, **nozik odam**. Hammamizga ham foydasi tegadigan **kattalardan**. Selxoztexnika respublika bazasining boshqaruvchisi Hojimurod Xolmatov.*(“Jimjitlik”, 27b) Ushbu misolda adib bir necha o'rinda metonimiya usulidan unumli foydalangan. Masalan, “yuqoriga joy qildirib qo'y” birikmasiga e'tiborni qarataylik. “Yuqori” leksemasining bosh ma'nosi biror narsaning eng ustki qismida joylashgan; tepadagi, balanddagi, ustki (O'TIL, V, 97b) bo'lib, yozuvchi bu o'rinda har doim mehmonlarni kutib oladigan joy so'rini nazarda tutgan. Endi “nozik odam” birikmasiga e'tiborni qarataylik. “Nozik” leksemasining bosh

¹ Pinxasov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya va frazeologiya. “O'qituvchi”. – T , 1969y, 13b

² Shomaqsudov A. va boshq. O'zbek tili stilistikasi. – T.: 1974, 237b

ma'nosi (forscha –ingichka, yengil; yumshoq, muloyim; mo'rt, bo'sh; nafis) yuksak mahorat va san'at bilan juda bejirim qilib ishlangan; nafis, latif (O'TIL, III, 49b)bo'lib, adib qo'llagan birikmada alohida e'tibor, mulozamat, takalluf talab etadigan, izzattalab ma'nolari o'sib chiqqan va metafora usuli orqali ma'no ko'chirilgan, uslubiy bo'yoqdorlik amalga oshirilgan. "Kattalardan" leksemasiga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, bu leksemasining bosh ma'nosi hajmi, o'lchami me'yordan ortiq; ulkan (O'TIL, II, 333b) bo'lib, ushbu misolda yuqori lavozimdagi amaldor; rahbar, boshliq ma'nolari ifodalanib kelingan va metonimiya usuli orqali ma'no ko'chirilgan. Tahlillarimiz natijasida shu narsa ayon bo'ldiki, Said Ahmad bitta badiiy nutqda ham metonimiya, ham metafora usulidan unumli foydalangan va badiiy ta'sirchanlikni amalga oshirgan. Bu esa yozuvchining mahoratidan dalolat beradi.

2. *Redaksiyalar-ku xatga to'lib ketgan. Ammo Mirvali uncha – muncha amaldorlarga so'zini berib qo'yadiganlardan emasdi. U faqat **birinchini** tan oladi. **Birinchi** esa uni o'g'lim, degan. Shundoq bo'lgandan keyin kim unga tik kela oladi?!* ("Jimjitlik", 73b) Ushbu misolda Said Ahmad birinchi leksemasi orqali metonimiya usuli bilan ma'no ko'chirilishini amalga oshirgan. "Birinchi" leksemasining bosh ma'nosi tartib o'rni 1 raqami bilan belgilangan, 1 nomerli (O'TIL, I,275b).Ushbu o'rinda bu leksemadan rahbar, boshliq, hukmdor semalari o'sib chiqqan.

San'atning har qanday turi, jumladan, so'z san'ati ham originallik va rang-baranglikni sevadi.¹ Maxsus badiiy tasvir vositalari, ya'ni troplar adabiy asar tilining shirali, ta'sirchan, bo'yoqdor va rang-barang bo'lishiga yordam beruvchi omillardandir. Bu, asosan, nazmda sezilsa-da, lekin biz nasrda ham yozuvchilarning maxsus badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanganligining guvohi bo'ldik.

¹ Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish kursi bo'yicha o'quv-metodik qo'llanma.T.: "O'qituvchi", 1979, 148b

1. Bu gaplar Tolibjonning *ko'ksini kuydirayotgan olovlar orasidan alanga* bo'lib chiqdi. (*"Jimjitlik"*, 7b)
2. Shu bolani jinim suymaydi. Ko'rarsan, bir kun senga pand berib qo'yadi. *Odam sotish odatim* yo'q edi. Bir aytib qo'yay. Kechalari kelib kiyik ovlaydi bu yaramas. (*"Jimjitlik"*, 29b)
3. –Ana, ana! – dedi Mirvali.- Endi *kallangni motori* qizidi. (*"Jimjitlik"*, 31b)
4. Juda *xunuk ish* bo'ldi-da, aksiga olib oblastga chaqirib qolishdi. Raisni kuzatgani chiqolmadim. Siz chiqdingizmi, tog'a? (*"Jimjitlik"*, 37b)
5. Bu iliq vujud dunyoning rohatlari ichida hech narsaga teng ko'rib bo'lmaydigan *buyuk bir rohat* edi. (*"Jimjitlik"*, 58b)

1.5. Said Ahmad asarlarida dialektizmlarning qo'llanilishi

Yozuvchilar o'z qahramonlarini o'zlari yashaydigan hudud va muhitdan ayirmagan holda, hayotdagidek ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib ilovaga xos so'zlarni ishlatadi. Sheva so'zlari mahalliy kolorit, hududiy mansublikni o'zida aniq aks ettirish bilan birga "badiiy nutqda muayyan estetik vazifani bajaradi. Biroq dialektizmlarning estetik qimmat kasb etishi, ularning badiiy nutqdagi me'yori, qanday ishlatilishi va ayni paytda qanday dialektizmlarning qo'llanilishi bilan bog'liqdir".¹

Tilshunoslikka oid adabiyotlarda shevaga xos birliklarning fonetik, leksik, grammatik dialektizmlar sifatida qarash tasnif qilinganligini kuzatish mumkin.

I. Fonetik dialektizmlar asosan, tovushlarni o'zgartirib qo'llash, tovush orttirilishi, tovush tushishi va tovushlarni qavatlab qo'llash ko'rinishlarida namoyon bo'ladi:²

1. – *Biz taraflarda qaraqshi jo`q edi-ku. Bu tovlarda igna ham jo`qolmaydi. ("Jimjitlik", 52-bet).*

2. – *Ulovlarni tovga haydaymi?*

– *Shoshma bolam. Manov meymonga tomoq ber. ("Jimjitlik", 52-bet).*

¹ Abduraxmonov X, Maxmudov N. So'z estetikasi. Toshkent: Fan, 1981 yil 24-bet.

² Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T.: Fan, 2006 yil 51-bet.

3. – **Ulim**, jo`q dema. Bir **pusrman** bolasi ekan. **Pat** – **partingni** minib, pastga tushib chiq. **Shay** ham tugagan. Tuz ol, qand ol. Gugurt olish ham esingdan chiqmasin.

4. – Soat odamdan qimbat emas, - dedi chol. – Bor meymonni aytganini qil. (“Jimjitlik”, 52-bet).

5. – Sharshara bu yoqda – ku, dedi ajablanib Mirvali.

– Bilmasakansiz-ku, tog`a. **Shovva** bu yoqda. (“Jimjitlik”, 15-bet).

6.- Biz taraflarda **shir** yalang`och nima qilib **juribsan**, **shirag`im**? (“Jimjitlik”, 51-bet).

7.-Umringdan baraka top, bolam. O`g`il, o`g`il ekan. Shuning uchun ham o`gil tug`ilgan uyda to`y bo`lib ketadi. Beri kel peshonangdan bir o`pib qo`yay. Ezilib adoyi tamom bo`lgan **enangga boshqatdan** jon ato qilding. (“Jimjitlik”, 61-bet).

II. Leksik dialektizmlar:

1. – Endi bor, aylanib kel. Shoshma, **esim qursin**. O`tir. (“Jimjitlik”, 8-bet).

2. – Tog`aaaa! **Katta enam** chaqiryaptilar. Choyingizni icharmishsiz! (“Jimjitlik”, 53-bet).

3. – Qo`zg`almang, **ena**, qo`zg`almang. Sevibin qodingizmi, **ena**? Tolibjon kelib bag`ringiz to`lib qoldimi?! (“Jimjitlik”, 13-bet).

4. – **Katta ena**, tog`am keldilar, Mirvali tog`am keldilar! (“Jimjitlik”, 13-bet).

5.- Pulni-ku, to`laysan. Senga pul cho`t emas. Qurbonlar umrini nima bilan to`laysan? Azob – uqubatda yo`qolgan navqiron umrimni nima bilan to`laysan? Sarson- sargardon bo`lib, o`lib ketgan xotinimning umrini nima bilan to`laysan? Yo`q bo`lib, to`zib, **patarat** topib ketgan oilamga qancha haq to`laysan? Kiyimlarni yoq. Bo`lmasa tepkini bosaman. (Jimjitlik, 45 b)
“Patarat” leksemasi so`zlashuv tiliga xos leksema bo`lib, uning ma`nosi parokanda, tartibsiz, alg`ov-dalg`ovdir. Patarat topmoqlik esa parokandalikka uchrab mahv bo`lmoq, yo`q bo`lib ketmoqlikdir. (O`TIL, III, 237b)

6. Bolalar kattakon olma **girdiga** cho'p tiqib charxpalak yasashgan ekan ariqchada pildirab aylanyapti. ("Jimjitlik", 54-bet).

III. Grammatik dialektizmlar:

1. – Nu, bo'sh vaqtinga **qoriy**. **Sploshnoy zanimatsa itsam**, ikki kunda bir ro'mol **bita**. ("Jimjitlik", 72-bet).

2. – Chiyalining jahon bozorida oqini ikki yuz o'ttizga, qorasini ikki yuzga **sotalar**. ("Jimjitlik", 72-bet).

Dialektal leksika ma'lum hududda yashaydigan hamma kishilar qo'llaydigan, o'sha hudud aholisi nutqiga xos bo'lgan so'zlar bo'lib, ular og'zaki so'zlashuv nutqiga xosdir. Dialektal so'zlar badiiy adabiyotda personajlar tilini individullashtirish uchun va stilistik maqsadlarda qo'llaniladi. Badiiy adabiyot va kinofilmlarda mahalliy koloritni aks ettirish, asar qahramonlari nutqini real berish maqsadida dialektizmlardan foydalaniladi.¹

Said Ahmad voqelikni badiiy-estetik jihatdan ta'sirchan va yorqin ifodalash uchun tilning, leksik, fonetik, grammatik imkoniyatlaridan o'ziga xos foydalanadi. Bu yozuvchining individual uslubi so'zlashuv nutqi imkoniyatlaridan foydalanishi va umumxalq tilining chegaralangan qatlamlari boyligini o'zida aks ettirishi bilan xarakterlanadi.

¹ Sayfullayeva R va boshqalar. Hozirgi O'zbek adabiy tili. Toshkent: 2009. 123-bet

Said Ahmad asarlari tilida varvarizm va undalmalardan foydalanish mahorati

Badiiy adabiyotda muayyan tasvir maqsadi bilan o'zga tilga oid so'z va iboralar qo'llanishi kuzatiladi. Tilning lug'at tarkibiga kiritilmagan, faqatgina og'zaki so'zlashuv nutqiga xos bo'lgan bunday chet so'zlaridan badiiy nutqda qahramon xarakteri, milliy mansubligi va ichki dunyosi tasvirida hamda voqea-hodisaga xorijga xoslik ta'kidini berish maqsadida ishlatiladi. Shuningdek, voqealar bo'lib o'tayotgan o'ringa ishora qilish yoki nutqiy vaziyat va unda ishtirok etayotganlarning milliy mansubligi haqida ma'lumot berish istagi bilan ham kiritilishi mumkin. Bunday birliklar varvarizmlar (ayrim adabiyotlarda ekzotizmlar) deb yuritiladi.¹ A.Hojiyev fikricha, varvarizmlar yunoncha barbarismos so'zidan olingan bo'lib, ona tiliga o'zlashmagan, o'zga til hodisasi sifatida qo'llangan so'z yoki iboralardir. ²Varvarizmlardan, odatda o'zga yerga xos rasm-odatlarni tasvirlashda, mahalliy koloritni yaratishda foydalaniladi. Said Ahmad asarlari tahlili jarayonida quyidagi o'rinlarda varvarizmlarga asoslangan badiiy nutqlarni uchratdik:

¹ Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T.: Fan, 2006 yil 52-bet.

² Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: "Fan", 2002, 27b

1. *Muncha imillaysan?! Chaqqon-chaqqon ye. Markazga tushamiz. Ertaga senga **oddix** beraman. Damingni olasan. Bugungacha chidab ber, bola. (“Jimjitlik”, 31b)*

2. *Kredit texnikumida o’qib yurganimda bizga pul **oborotidan** bankda praktika olib borardi. (“Jimjitlik”, 35b)*

3. *Sal durustroq kiyinib oling, **sto vosmoylarga** o’xshab yurmang, mehmonlar oldida,- dedi. (“Jimjitlik”, 41b)*

4. *–Hoy, menga qarang. Uyda yo’q paytingizda-ku, mayli. Nega bor paytingizda ham yo’qqa o’xshab yurasiz? Axir, shu kolxoz o’lgurda ishlaganingizga 20 yil bo’lay deyapti. Qo’l ostingizda ishlaydiganlardan bittasi **geroy** bo’ldi. (“Jimjitlik”, 57b)*

5. *Bolalar terlab, hansirab qaytib kelishdi. Yoshi kattarog’I Tolibjonning oldiga kelib, **davay** “zuv, zuvakam” o’ynaymiz, deb qoldi. (“Jimjitlik”, 58b)*

6. *Partiya a’zosi bo’la turib bironta foydali ish qilishiga imkon berishmayotganini birma bir yozdi. Kitob shahar pochtasidan **zakaznoy** qilib jo’natdi. (“Jimjitlik”, 59b)*

Yuqorida tahlilga tortgan misollarda “oddix”, “oborot”, “sto vosmoylar”, “geroy”, “davay”, “zakaznoy” leksemalari varvarizmlar bo’lib, ular asarning nutqiy ta’sirchanligini oshirib, qahramonlar nutqini individuallashtirish uchun xizmat qilmoqda.

Vulgarizmlar (lotincha vulgaris – oddiy, sodda¹) – dag’al so’z (adabiy tilga kirmaydigan qo’pol so’z²), dag’al iboralar (adabiy til, odatdagi (maqbul) muomala uchun xos bo’lmagan, qo’pol munosabatni ifodalovchi ibora³) bo’lib, bunday haqorat so’zlarda o’ta salbiy munosabat, kamsitish, mensimaslik, haqorat kabi bir qator ifoda semalari juda ochiq ko’rinib turgan bo’ladi. Bunday so’zlar ko’proq nominativ ma’nolariga ko’ra emas, ayni shu

¹ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. T.: “Fan”, 2002, 28b

² Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. T.: “Fan”, 2002, 34b

³ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. T.: “Fan”, 2002, 34b

konnotativ ma'nolariga ko'ra nutqda yashaydi.¹ Haqorat so'zlari badiiy asarlarda asosan, qahramonlar nutqida ishlatiladi va yozuvchi asarlarini o'rganish jarayonida quyidagi o'rinlarni ularni aniqladik:

1. *Ko'zim ochiq paytlarda qayoqlarda eding, **tentakim**? ("Jimjitlik", 5b)*
Tentak leksemasining bosh ma'nosi to'g'ri fikr yurita olmaydigan, aqli noraso, esi past (O'TIL, IV, 65b) bo'lib, ushbu o'rinda bu leksemadan erkalash, mehribonlik, sog'inch ifoda semalari o'sib chiqqan. Salbiylik ma'no ottenkasiga ega bo'lgan leksemadan ijobiylik ma'no bo'yoqdorligini hosil qilish yozuvchining o'ta mahoratli, so'zlardan unumli foydalana oladigan mohir so'z ustasi ekanligidan dalolat beradi.

2. *Bu qadar bosar-tusarini bilmay qolgan Luqmonov "Usmonov kim, bir beodob **tirrancha**, gapning orqa –o'ngiga qaramay **vaysayveradigan**, bunday mo'tabar dargohlarda ishlashga noloyiq" ekaniga boshqalarni ham ishontiqmoqchi bo'lardi. ("Jimjitlik", 12b)*

3. *–**Daydining** o'zi qani? Qaysi **go'rga** g'oyib bo'ldi? ("Jimjitlik", 13b)*

4. *–Ho, **daydi**! –dedi unga yaqinlashib qolgan Mirvali. Tolibjon suv shovqinidan uning ovozi eshitmadi. Mirvali: - Hoy, **karmisan, nima balo**?! –deb yana qichqirdi. ("Jimjitlik", 16b)*

5. *–Vey, bo'ri iniga kirib, bolasini opchiqqanman-a! **Qip-qizil jinni** edim. ("Jimjitlik", 25b)*

6. *–Shundoq, bolam. Qo'li egri. **Harom odam**. ("Jimjitlik", 30b)*

7. *–Voy, **yaramas-ey**! Voy, **ablah-ey**! O'z ko'zingiz bilan ko'rganmisiz yo taxminiy gapmi bu? ("Jimjitlik", 30b)*

8. *–Tavba, bu odamga bitta gap kam, ikkita gap ko'p. **Jinnimi** o'zi. Odamovi, bu **yaramas chol**. ("Jimjitlik", 42b)*

9. *–Vey, bu hunarni qaydan o'rgangansan, **palakat**?! Juda zo'r ekansan-ku! ("Jimjitlik", 42b)*

¹ Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T.: Fan, 2006 yil 52-bet

10. *Hojimurod endi hayotdan umidini uzgandi. Hozir bu yaramas jar yoqasida peshonamdan otadi, jarga qulayman, o'ligim bo'rilarga yem bo'ladi, deb o'yladi. Shart burildiyo o'zini Nurmat tog'aning oyog'i ostiga tashladi.* (“Jimjitlik”, 47b)

11. *–Nima gunoh qildim, yaramas?* (“Jimjitlik”, 68b)

Yuqorida tahlilga tortgan misollarimizda uchraydigan salbiylik ma’no ottenkasiga ega bo’lgan leksemalar asarning nutqiy ta’sirchanligini oshirib, obrazlarning nutqini individuallashtirgan va asarning kitobxon oldidagi jozibasini yanada oshirgan.

Said Ahmad ijodida ham undalma, varvarizmlar turli nutq vaziyatlarida personajlar nutqini xarakterlash, nutqning emotsional-ekspressivligini oshirish, turli ma’no ottenkalarini ifodalash, obrazlilikni yuzaga chiqarishda muhim uslubiy vosita vazifasini bajargan.

Undalma so’zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmet nomini anglatish bilan birga adresatning xarakterini, xususiyatini ochib beradi hamda munosabat ifodalaydi. Shunga ko’ra, I.Rasulov undalmalarni 2 guruhga ajratadi:

1. Stilistik neytral undalmalar.
2. Baho xarakteristikasi ifodalovchi undalmalar.¹

Stilistik neytral undalmalarda baho xarakteristikasi ijobiy yoki salbiy bo’yoqdorlikni ifodalamaydi, ya’ni adresatga nisbatan munosabat bildirilmaydi. Baho xarakteristikasi ifodalovchi undalmalar esa turli ma’no nozikliklarini ifodalashi mumkin. Said Ahmad asarlarida munosabat bo’yoqdorligiga ega bo’lgan undalmalar. Bunday undalmalar o’z navbatida 3 xil usul bilan hosil qilingan.

O’z leksik ma’nosiga ko’ra baho ifodalovchi so’zlar bilan:

M: *Seni hamma qiz polvon deyardi. Endi sen hezpolvon bo’lding, nomard, - dedi-yu, davradan chiqib ketdi.* (“Jimjitlik”, 220-bet).

¹ Shomaqsudov A. va boshq. O’zbek tili stilistikasi. – T.: O’qituvchi, 1983. – B.189.

Nurmat tog'a indamay ichkariga kirib ketdi. Uning bu xil muomalasidan jahli chiqqan Rasulbek orqasidan ichkariga kirdi.

- Bu qanaqasi bo'ldi, boboyka...

Nurmat tog'aning ko'zlaridan o't chaqnab ketay dedi. ("Jimjitlik", 27-bet).

So'zlarni ko'chma ma'nolarda qo'llash orqali ma'no kuchaytiruvchi undalmalar.

M: Po'stloq shilib, beli qotib ketganlarga alam qildi.

- Ho', piyanista nomard, beochirit o'tding-a, endi meni navbatim kelgan edi. ("Jimjitlik", 149-bet).

Vulgarizm va varvarizmlar orqali yuzaga kelgan salbiy bo'yoqdorlikni ifodalovchi so'zlar ham Said Ahmad asarlarida ko'plab uchraydi. Ijtimoiy muhit va davr ruhiyatini berish, chet el madaniyati oldida sajda qiluvchi kishilar obrazining tilini tipiklashtirish, boshqa millatlar tomonidan yerli aholini mensimaslik, nazar-pisand qilmaslik holatini real tasvirlash va boshqa maqsadlarda Said Ahmad ijodida bunday so'zlar personajlar nutqida qo'llanilgan.

M: Uni ikki yigit zambarda opchiqib ketayotganda Habiba dedi:

- Tu endi mard nesti, tu endi hezalak (Sen endi erkak emassan, hezalaksan). ("Jimjitlik", 220-bet).

Aferist u. Yomonam shayton odam. Lyuboyni aldaydi. Ba'zi bir defitsit zapchastlarni topishga yordam berib turadi, deb yonimga olgandim. ("Jimjitlik", 30-bet).

Ushbu misollarda haqorat, ikkinchi kishiga bir ta'rif ma'nolari ifodalangan.

Said Ahmad voqelikni badiiy-estetik jihatdan ta'sirchan va yorqin ifodalash uchun tilning fonetik, leksik va grammatik imkoniyatlaridan o'ziga xos foydalanadi. Bu yozuvchining individual uslubi so'zlashuv nutqi imkoniyatlaridan foydalanishi va umumxalq tilining chegaralangan qatlamlari boyligini o'zida aks ettirishi bilan xarakterlanadi.

Said Ahmad asarlarida eskirgan so'zlarning qo'llanilishi

Zamon o'tishi, sharoit o'zgarishi bilan ba'zi narsalar yo'qoladi va shu bilan bir qatorda ularni ifodalaydigan so'zlar ham iste'moldan chiqib qoladi. Shuning natijasida ba'zi so'zlar eskiradi.

Ayrim vaqtlar tushunchalar muomalada bo'lgani holda, ular yangi nom oladi. Bunday qo'llanmay qolgan so'zlar ham eskirgan sanaladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda tilda so'zlarning eskirib qolishi ikki xil bo'ladi:

- a) arxaizmlar
- b) istorizmlar

Arxaizmlar (yunoncha *archaios* – qadimgi¹). Ma'lum davr uchun eskirgan, iste'moldan chiqib boshlagan til birligidir. Sh.Rahmatullayev fikricha, arxaizmlar o'zi nomlayotgan voqelikni anglatuvchi leksik birlik bilan yonma-yon yashaydi. Arxaik so'zlar orqali ifodalanadigan predmetlar mavjud bo'ladi, biroq u predmetlar avvalgi nomlari(eskirgan so'zlari) bilan

¹ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: "Fan", 2002, 18b

emas, balki yangi soʻzlar, yaʼni ekvivalentlari bilan ifodalanadi.¹ Arxaizmlar badiiy matnda tasvirlanayotgan davr voqeligini real tasvirlash, asarning tarixiylik ruhini taʼminlash maqsadida qoʻllaniladi va “ular oʻz oʻrnini boshqa leksemaga boʻshatib bergan leksik birliklar”² boʻlib, adib asarlarini oʻrganish jarayonida quyidagi oʻrinlarda bunday soʻzlarga duch keldik:

1. –Yolvoraman. **Sabiylarimga** rahm qiling. Umrim boʻyi qulingiz boʻlay. (“Jimjitlik”, 47b). Biz ushbu misoldagi “sabiy” leksemasini tahlilga tortdik. “Sabiy” leksemasi hozirgi kunda isteʼmol doirasida boʻlmasa-da, uning oʻrniga goʻdak, bola, yigitcha(OʻTIL, III, 410b) leksemalari ishlatiladi.

2. **Oblast** partiya konferensiyasida soʻz olib, hozirgi rahbarimiz **ministr** Luqmonovning yolgʻon-yashiq gaplariga ishonib, yaxshi-yaxshi odamlarni badnom qilayotganini, Respublikada yangi bir shaxs paydo boʻlganini aytdi. (“Jimjitlik”, 10b). Ushbu misoldagi oblast leksemasi oʻrnida hozirgi kunda viloyat, ministr leksemasi oʻrnida vazir leksemalari isteʼmol doirasidadir.

Yuqoridagi misollardagi arxaik soʻzlar muayyan davrning yozma uslubini ifodalashda va qahramonning nutqiy xarakteristikasini berishda uslubiy vosita sifatida xizmat qilgan.

Eskirgan soʻzlarning yana bir turi tarixiy soʻzlar boʻlib, ular istorizm termini bilan ham yuritiladi. Istorizmlar orqali ifodalanadigan tushunchalar isteʼmol doirasidan chiqib qolgan boʻladi. Istorizmlar oʻzlarining ekvivalentlariga (yangi soʻzlariga) ega emas.

Istorizmlar eskirgani va isteʼmoldan chiqib qolgani jihatdan arxaizmga oʻxshasada, biroq bunday soʻzlarning farqlari ham mavjud:

1. Arxaizmlar orqali ifodalanadigan narsalar mavjud boʻlsa, istorizmlar orqali ifodalanadigan predmetlar yoʻqolgan boʻladi.

¹ Pinxasov. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Leksikologiya va frazeologiya. “Oʻqituvchi”. – T, 1969y, 41b

² Sayfullayeva R va boshqalar. Hozirgi Oʻzbek adabiy tili. Toshkent: 2009. 121-bet

2. Arxaizmlarning ekvivalenti mavjud bo'lib, u shu bilan (yangi so'z yoki sinonimi bilan) ifodalansa, istorizmlarning ekvivalenti bo'lmaydi.

3. Arxaizmlar davrlar o'tishi bilan passiv so'zdan aktiv so'zga aylanishi mumkin, istorizmlar esa bunday xususiyatga ega emas.¹

Bunday so'zlar ham badiiy matnda o'tmish voqeligini real tasvirlash maqsadida ishlatilib, yozuvchi asarlari tahlili jarayonida ham istorizmlarni uchratdik:

1. **Obkomning birinchi kotibi** O'tbosarov bundan 4 yil oldin pensiyaga chiqqan. Lekin **partiya uchyotini** ko'chirib olib kelmagandi. ("Jimjitlik", 10b).

2. Darhaqiqat, oblast **selxoztexnika birlashmasi boshlig'I** Abdug'ani Ismoilov **sovxoz** nimani so'rasa yo'q demay berardi. ("Jimjitlik", 28b)

3. U qachonlardir Toshkentda zooveterenariya texnikumida o'qigan, **kolxozga** vetvrach bo'lib kelgandi. Bu orada **kolxoz sovxozga** aylandi, u o'sha-o'sha vetvrach. ("Jimjitlik", 56b).

Biz yuqorida tahlilga tortgan misollarimizdagi Obkomning birinchi kotibi, partiya uchyoti, selxoztexnika birlashmasi, sovxoz, kolxoz kabi tushunchalar istorizmlardir, ya'ni ushbu leksemalarning o'zi ham, ular anglatgan ma'no ham eskirgan.

¹ Pinxasov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya va frazeologiya. "O'qituvchi". – T, 1969y, 41b

II BOB. Said Ahmad ijodidagi badiiy tasvir vositalarining lingvistik asoslari hamda ularning nutqiy individuallikni ta'minlashdagi o'rni

O'zbek adabiy tilining rivojlanishi, umummilliy adabiy til darajasiga ko'tarilishida badiiy adabiyotning o'rni beqiyosdir. Shunday ekan, bugungi kun davr adabiyoti rivojiga o'z hissasini qo'shayotgan ijodkorlar asarlarining tili va uslubini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Shu maqsadda yozuvchi Said Ahmad asarlariga murojaat qildik.

Yozuvchi voqelikni badiiy-estetik jihatdan ta'sirchan va yorqin ifodalash uchun tilning fonetik, leksik va grammatik imkoniyatlaridan o'ziga xos foydalanadi. Bu yozuvchining individual uslubi so'zlashuv nutqi imkoniyatlaridan foydalanishi va umumxalq tilining chegaralangan qatlamlari boyligini o'zida aks ettirishi bilan xarakterlanadi.

Badiiy tasvir vositalariga ijtimoiy ta'sir usuli mavqeini berishga erishish ijodkordan katta mahorat talab etadi.

Yozuvchi o'zi bayon qilayotgan fikrni o'quvchiga ixcham, aniq, ta'sirchan va tushunarli qilib yetkazib berish uchun uzundan-uzoq ta'rif va tavsiflar o'rniga o'xshatish, kinoya, sifatlash, majoz kabi vositalardan foydalangan holda lo'nda va aniq qilib tushuntirishga harakat qiladi. «Bunday vositalarni tilshunoslik va adabiyotshunoslikda ifoda-tasviriy vositalar deyiladi.¹

Maxsus ifoda-tasviriy vositalar *troplar* va *figuralar* deb ikkiga bo'linadi. T.Boboyevda Poetik ko'chimlar (troplar) va Poetik sintaksis (sintaktik-stilistik figuralar) negadir faqat she'riy nutq doirasida o'rganilgan.² Bunday yondashuv, bizningcha, o'zini oqlamaydi. Chunki bu o'rinda olim «poetik ko'chim» va «poetik sintaksis» atamalarini faqat tor ma'noda, ya'ni she'riy ko'chimlar va she'riy sintaksis sifatida qo'llagan ko'rinadi. Vaholanki, ishimizning birinchi bobida ko'rib o'tganimizdek, «poetika» atamasi bugungi kunda, umuman «badiiy asar poetikasi» yoki «ijodkor poetikasi» tushunchalari doirasida

¹ Qo'ng'urov R. va b. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. –T.: O'qituvchi, 1992. –B.97.

² Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O'zbekiston, 2002.

muayyan asar yoki muallifning badiiy nutqni bezash vositalaridan foydalanish mahoratini ko'zda tutadi.

Shunday ekan, uslubshunoslik nuqtai nazaridan qaralganda, tor ma'nodagi, ya'ni faqat she'riy asarlarga xos poetik ko'chim va poetik sintaksis doirasida nazariy ma'lumotlarni taqdim etish «Adabiyotshunoslik asoslari» darsligi uchun yetarli emas. Negaki, «ko'chimlar» sifatida berilgan istiora, o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, ramz, allegoriya, metonimiya, mubolag'a, sinekdoxa, metafora, perifraz, kinoya, sarkazm, oksimoron, hamda poetik sintaksis sifatida tahlil qilinadigan gradatsiya, klimaks, antiklimaks, ritorik so'roq, ritorik xitob, ritorik murojaat, badiiy takrorlar, ellipsis, sukut, parallelizm, antiteza, xiazm, polisindeton va boshqalar faqatgina she'riy asarlarga xos badiiy tasvir vositalari emas. Ularga nasriy va dramatik asarlardan ham o'nlab misollar keltirish mumkin.

2.1. Said Ahmad asarlarida fonetik vositalarning qo'llanilishi

Tilning material tomoni tovushlar bo'lganligi uchun tildagi so'zlar, iboralar, gaplar nutq tovushlari vositasida shakllanadi va yuzaga chiqadi. Nutqdagi fonetik vositalar ham ba'zi o'rinlarda uslub yaratuvchi vositaga aylanishi mumkin. Odatda, badiiy adabiyotda ko'proq lirik asarlarda tovushlar, urg'u va ohang hissiy ta'sirchanlikni oshirishda muhim stilistik vosita bo'ladi. Lekin ba'zan nasriy asarlarda ham fonetik vositalar uslubiy bo'yoqdorlikni yuzaga chiqarishi mumkin.

«Nutq tovushlaridagi emotsionallik, ta'sirchanlik, talaffuzdagi jarangdorlik, eshitishdagi yoqimlilik, ularning badiiy qo'llanish qoidalari, estetik roli fonetik stilistikaning o'rganish ob'ektidir».¹ Rus tilshunosligida L.V.Shcherba, R.I.Avanesov, M.V.Panov, L.R.Zinder va boshqalarning asarlarida fonostilistikaga oid masalalar atroflicha o'rganilgan. O'zbek tilshunosligida esa bu masala deyarli yoritilmagan.

Fonetik uslubiy vositalar og'zaki nutqda to'laroq yuzaga chiqadi, yozma nutqda esa uning ayrim xususiyatlarinigina ifodalash mumkin, xolos. Lekin shunday bo'lsa-da, Said Ahmad asarlarida fonetik vositalarning uslubiy vazifa bajarib, matnning hissiy ta'sirchanligini oshirishi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi.

O'zbek tilshunosligida badiiy adabiyot tilini o'rganish bilan shug'ullanishning jiddiy tus olganligi til birliklarining badiiy asar tilida namoyon bo'lish shakllarini, ularning badiiy-estetik xususiyatlarini tabora aniqroq tasavvur qilishimizga, shuningdek ularning badiiy adabiyot tilini shakllantirish imkoniyatlari va badiiy estetik ta'sirini kengroq doirada tushunishimizga yordam beradi. Garchi ona tilimizdagi barcha birliklar badiiy adabiyotda tasvir vazifasini bajarsa-da ularning fonografik uslubiy vositalar deb nomlanuvchi katta bir guruhining adabiy asardagi lisoniy va badiiy-estetik

¹ Qilichev E. O'zbek tilining praktik stilistikasi. – T.: O'qituvchi, 1985. – B.88.

vazifasini batafsil tahlil qilish hali ko'plab tadqiqotlarning yaratilishini taqazo qiladi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, stilistik belgi-xususiyatlar til birliklarining barchasida ma'lum darajada mavjuddir. Fonetik, morfologik, sintaktik va leksik birliklar stilistikaning ham predmeti hisoblanadi.

Badiiy adabiyot tilida uslubiy vazifani bajarishga xizmat qiluvchi tilning ifoda tasvir vositalari ham badiiy uslubning boshqa funksional uslublar orasidagi mavqeini belgilovchi eng muhim alomatlardan biri sanaladi.¹ X.Doniyorov va S.Mirzayevlar «So'z san'ati» deb nomlangan kitoblarida berilgan ta'rif ayni shu o'rinda o'rinlidir: «Tildagi o'sish-o'zgarishlarni o'rganishni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadigan aspekt – lingvistik aspekt, yozuvchining umumxalq tiliga bo'lgan munosabati, til boyliklaridan foydalanishi, yozuvchi mahorati, stili haqida xulosa chiqaruvchi aspekt – stilistik aspekt».²

Fonetik stilistika esa tovushlarning bir-biriga bog'lanishining ekspressiv-stilistik imkoniyatlarini, xullas, nutq tovushlarining tilning ta'sirchan vositasi bo'lib xizmat qila olish usullari va qonuniyatlarini o'rganadi.

Fonetik stilistika nutqning ta'sirchanligini oshirish vositasi sifatida nutq tovushlarining stilistik imkoniyatlaridan foydalanish usullari bilan qiziqadi. Nutqda tovush va ohangdan foydalanish, ta'sirchanlikni kuchaytirish turlari xilma-xildir. Nutqni emotsional va ifodali qilishda alliteratsiya, assonans va tovush takrorlashning rang-barang ko'rinishlari muhim rol o'ynaydi. Narsa va jonivorlarning tovushlariga taqlid qilish hodisasidan ham stilistikada fikrni bo'rttirib ifodalash va unga ekspressiv tus berish uchun keng foydalaniladi.

Nutqni ta'sirchan qilishning bunday usullarini nasriy va she'riy asarlarda, maqol va matallarda, hatto xalq ertaklari va dostonlarining nasriy yo'l bilan yozilgan o'rinlarida ham uchratish mumkin. Unli va undosh tovushlarning fonetik jihatdan uyg'unlashib, takrorlanib kelishi nutqni ohangli va ta'sirli qiladi, til faktini esda saqlab qolishni osonlashtiradi. Nutqni ohangdor

¹ Karimov S.A. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. Samarqand, 1994

² Doniyorov X., Mirzayev S. So'z san'ati.-T:O'zbekiston, 1962.

qilishning xilma-xil shakl va usullari o'z tabiati va mohiyati bilan asosan she'riy nutqda xosdir. Poetik nutq ohang jihatidan ma'lum tartibga solingan, his-tuygu ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutkdir. Poeziyada nutqni ohang jihatidan ma'lum tartibga soluvchi vositalarni (masalan, ritm, qofiya, radif, band-larni) keng qo'llash xarakterlidir. Shuning uchun she'r tuzilishi fonetik stilistikaning maxsus sohasi sifatida alohida ajralib turadi. Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga ham alohida e'tiborni qaratish zarur. She'riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she'rda o'ziga xos jozibador ohang bo'ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo'llash natijasida erishiladi. She'riyatda asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takrori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Nasrda unlilarni cho'zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta'minlanadi. Tovushlarni uslubiy qo'llash bilan bog'liq qonuniyatlarni yozuvda «aynan» ifodalash imkoniyati cheklangan. Biroq, talaffuz va bayon muvofiqligiga **fonografik vositalar** yordamida erishish mumkin. Badiiy asarlarda ruhiy holatni yozuvda ifodalash o'ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo'lish, xafa bo'lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatiq, olqish, so'roq, ta'kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qo'llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usuli – **fonografik vositalardan** foydalanadilar. Fonografik vositalar fonostilistikada o'rganiladi.

Fonostilistika. Uslubshunoslikning nutq tovushlarining tilning ta'sirchan vositasi bo'lib xizmat qila olish usullari va qonuniyatlarini o'rganuvchi bo'limi¹.

Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning estetik xususiyatlariga ham alohida e'tibor qaratish zarur. Nasrda unlilarni cho'zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so'zlarni noto'g'ri talaffuz

¹ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T., 2002. 124-b.

qilish, tovush orttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta'minlanadi. Badiiy asarlarda ruhiy holatni yozuvda ifodalash o'ziga xos murakkablikni yuzaga chiqaradi. Qahramonlar ruhiyatidagi ichki hayajon, xursand bo'lish, xafa bo'lish, rozilik, taajjub, yalinish, hayratlanish, kinoya, piching, kesatq, olqish, so'roq, ta'kid, qoniqmaslik, norizolik, tilak-istak, qo'llab-quvvatlash kabi holatlarni aynan berishda yozuvchilar unli yoki undoshlarni birdan ortiq yozish usuli fonografik vositalaridan foydalanadilar.¹

Said Ahmad asarlari tahlili jarayonida ham quyidagi o'rinlarda fonografik vositalardan foydalanganligini uchratdik.

Tovushlarni cho'zib talaffuz qilish orqali ma'no kuchayishi, ta'kid, ajablanish, hayajon, kinoya kabi turli ma'no nozikliklari ifodalanishi mumkin. So'zlovchi tovushlar vositasida muayyan bir ma'no bo'yoqdorligini ifodalamoqchi bo'lsa, tinglovchi ham ma'noni tovushlar vositasida qabul qiladi. Shuning uchun so'z tarkibidagi biror tovushning cho'zilishi, almashtirilishi, tushirib qoldirilishi kabi hodisalar ma'noga ta'sir qilishi mumkin.

1.Unlilarni birdan ortiq yozish. Bunda unlini cho'zib talaffuz qilinganligi tushuniladi. Unlini cho'zib talaffuz qilish orqali qahramonning voqelikka munosabati oydinlashtiriladi. Ilmiy adabiyotlarda mazkur usul orqali belgining me'yordan kuchsiz yoki ortiq ekanligini ifodalashda foydalanilishi ta'kidlanadi.² Belgining ortiqqligi: - *Da -a*, - *dedi Mahkamov*, - *juda shishinib ketibdilar-ku. Burnilarini yerga ishqab qo'yish kerakka o'xshaydi. Mundoq qiling. Kechqurunga byuro chaqiring. Men ham qatnashaman. Juda boshimizga chiqarib yubordik uni.* ("Jimjitlik", 158b)

Belgining kuchsizligi: - *Yo'o'o'q*, - *dedi cho'zib Salima*. – *Mosh o'lgurdan darak yo'q.* ("Jimjitlik", 166b)

¹ Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. : "Fan", 2006, 37b

² Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. : "Fan", 2006, 37b

Unlilarni birdan ortiq yozish orqali chaqirish, da'vat etish ma'nosi ham ifodalanishi mumkin. Masalan: - *Tog'aaaa! Katta enam chaqiryaptilar. Choyingizni icharmishsiz!* ("Jimjitlik", 53b)

2.Undoshlarni birdan ortiq yozish. Aslida bir undosh talaffuz qilinishi kerak bo'lgan so'zlar muayyan vaziyatlarda ekspressiya va estetik maqsad talabi bilan atayin qavatlab talaffuz qilinadi. Qahramonning ichki ruhiyati va maqsadini o'quvchiga yetkazish uchun yozuvchilar badiiy matnda bu holatni birdan ortiq yozish orqali ifodalashga harakat qiladilar. Masalan: - *Yo'g'-e, - dedi qo'rqib ketgan yigit. "Chayka"da kelgan bu odam prokuror emasmikin, ministr emasmikin, degan o'y bir lahza ko'nglidan o'tdi. – Menga tuppa-tuzzuk odam sotgan edi.* ("Jimjitlik", 161b) Ushbu misolda yozuvchi "z" fonemasini qavatlantirish orqali qahramonning siqilish, xavotir olish kabi ruhiy holatlarini namoyon etgan.

3.So'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish. Og'zaki nutqda turli sabablarga ko'ra ayrim so'zlar, asosan, o'zlashma so'zlarni buzib talaffuz qilish holati mavjud. Bunday xato so'zlovchining o'zlashgan so'z imlosini to'g'ri tasavvur qilmasligi, boshqa millatga mansubligi, paronimlarni farqlamaslik natijasida yuzaga keladi, deb izohlash mumkin. Badiiy asarda bu usuldan qahramon nutqini individuallashtirish hamda ifodani og'zaki –jonli nutqqa yaqinlashtirish maqsadida foydalaniladi.¹ Masalan: *Ratsiya ancha paytgacha qitirlab, guvillab turdi. Keyin xotinchalish ovoz keldi: - Garaj **jujurnigi** eshitadi...* ("Jimjitlik", 41b) Ushbu misolda "dejurniye" ya'ni "navbatchi" o'zlashma so'zi jujurnik tarzida buzib talaffuz qilingan.

Badiiy asarlarda personaj nutqida fonetik o'zgachalikni uslubiy vosita sifatida qo'llash asar qahramonining emotsional holatiga badiiy bo'yoq berish, tasvirning ta'sirchanligini oshirishda asar badiiyligini ta'minlovchi fonostilistik asoslardan biri hisoblanadi.

Nutqda bir tovushni ikkinchisi bilan almashtirish ham uslubiy vazifa bajaradi. So'zdagi tovushlarni to'g'ri talaffuz qila olmaslik, biri o'rnida

¹ M.Yo'ldoshev. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. : "Fan", 2006, 37b

ikkinchisini qo'llash, ko'pincha, bolalar nutqiga xos. Yozuvchilar bolalar nutqi uchun xarakterli bu xususiyatni o'z asarlarida berish orqali tasvirning real, jozibali chiqishiga, ular nutqini individuallashtirishga erishadilar. A.Qahhor o'zining «Bemor» hikoyasida onasidan juda yosh yetim qolayotgan bola nutqida *r* va *y* tovushlarini almashtirib ishlatadi va nutq ta'sirchanligini oshiradi: *Xudoyo, ayamdi **daydiga** da'vo **beygin**...*¹

Bolalar nutqiga xos bo'lgan *r-y* tovush almashishi hodisasidan Tog'ay Murod boshqa bir maqsadda foydalanadi.

M: - *Otingiz nimaydi, polvon? – dedi.*

- *Shukuy!*

- *E, yashang, Shukur polvon! Bolalar, manovi Shukur polvon bilan olishadigan mard bo'lsa o'rtaga chiqsin!*

Telpagi quloqlarini tushirib olmish bir bola chiqib keldi.

Ketidan otasi ovoz berdi:

Polvon bova, manovi Ermat polvonni bir sinab ko'ring !

Bo'ri polvon Ermatning-da qo'lidan ushladi.

- *Ermata polvon, - dedi, siz manovi **Shukuy**... e, astag'firullo, Shukur polvon bilan olishasizmi? O'zi yurak uryaptimi? E, bali, gap bunday bo'пти-da!*

(VI, 2, 13 - bet)

Birinchi holatda, A.Qahhorda bolaning so'zlari ota-bolaning noiloj ahvoliga achinish, chuqur iztirob hissini uyg'otsa, ikkinchi holatda, Said Ahmadda kitobxonda yengil kulgu uyg'otish, qolaversa, hali ravon gapirishni o'rganmagan bolakaylarni kurash tushish uchun davraga chorlab, ularda milliy urf-odatlarimizga mehr-muhabbat uyg'otishdek ajoyib udumga o'quvchi e'tiborini qaratish ko'zda tutilgan. Davraboshi bolalar bilan muloqotga kirishib, beixtiyor bola tilidan **Shukur** ismini uning o'zi aytganday **Shukuy** deb talaffuz qiladi, shu tariqa pragmatik funktsiya bajaruvchi birlik sifatida erkalash ma'nosi

¹ Qilichev E. O'zbek tilining praktik stilistikasi. – T.: O'qituvchi, 1985. – B.91.

yuzaga boʻrtib chiqadi, soʻzning ekspressiv-emotsionalligi yanada ortadi, holatni aniqroq tasavvur qilishga yordam beradi.

4. Alliteratsiya (lot. ad – old, -ga + litera - harf). Misralar, undagi soʻzlar boshida bir xil undosh tovushlarning takror qoʻllanilishi.¹ M.Yoʻldoshev alliteratsiya haqidagi mulohazalarini bayon qilar ekan: “...badiiy tafakkur ifodasi, bu ifodaning taʼsir quvvatini kuchaytirishda undoshlar asosida yuzaga keladigan alliteratsiyaning favqulodda oʻrni juda qadim zamonlardayoq anglab yetilganini ham alohida qayd etish lozim”, deydi. A.Haydarov sheʼriyatda alliteratsiya orqali obrazlilik va taʼsirchanlik boʻrttirilib, uslubiy ravonlik, soʻzlarning ohangdorligi vujudga kelishini aytadi va uning gorizontal yoki vertikal yoʻnalishda boʻlishini taʼkidlaydi.² Demak, yuqoridagi fikrlarga tayanadigan boʻlsak, bu sanʼatdan asosan sheʼriy nutqda foydalaniladi. Lekin biz Said Ahmad asarlari tahlili jarayonida nasrda ham qoʻllanilgan alliteratsiyalarni uchratdik: *Kampir endi uning muzdek, sovib qolgan peshonasiga lab tegizdi. Payvasta qoshlarini siladi. Keyin qaltirab: - Kapalak kiygan keladi, kafan kiygan ketadi, - deb pichirladi.* (“Jimjitlik”, 143b)

5. Geminatsiya. Badiiy nutqda keng qoʻllaniladigan fonetik usullardan biri boʻlib, mazkur hodisa “Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati” da “qoʻsh undoshlik” sifatida izohlanadi.³ Qoʻsh undoshlik ikki aynan bir xil undoshli holatning yuzaga kelishidir.⁴ Ushbu hodisa manbalarda “qoʻsh undoshlik”,⁵ “qoʻshoqlanish” yoki “ikkilangan undosh”,⁶ “geminatsiya”,⁷ “undoshlarni qavatlash”⁸ kabi turli nomlar bilan yuritilgan. Soʻzlashuv

¹ Hojiyev.A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati.- T: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002, 12b

² Shofqorov A. Mirtemir sheʼriyatida takrorning maʼnoviy-uslubiy xususiyatlari: Filol.fanlari nomzodi...diss.avtoref. – T., 2012, 9b

³ Hojiyev.A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati.- T: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002, 30b

⁴ Hojiyev.A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati.- T: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002, 143b

⁵ Hojiyev.A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati.- T: “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2002, 143b

⁶ Neʼmatov X. Oʻzbek tilining tarixiy fonetikasi. – T.: Oʻqituvchi, 1992, 86b

⁷ M.Yoʻldoshev. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T.: “Fan”, 2007, 47b

⁸ Abdullayev A. Oʻzbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – T.: Fan, 1983, 88b

nutqimizdagi so'zlarda undosh tovushni ikkilantirish – geminatsiya hodisasi ham badiiy tasviriy vosita hisoblanib, badiiy asarda maqsadli qo'llanadi. Undosh tovushning bunday qavatlantirilishi so'z ma'nosini kuchaytirishga, nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. A. Shofqorov fikricha, har qanday ikki unli o'rtasidagi qo'sh undosh geminatsiyani vujudga keltirmaydi. Chunki tilimizdagi ba'zi so'zlarda undoshlarning qo'shloq qo'llanishi me'yoriy holat bo'lib, biror qo'shimcha ma'no ottenkasiga ega bo'lmaydi.¹ M. Yo'ldoshev undoshlarning qavatlanishi haqida fikr bildirib, shunday yozadi: "Undoshlarning qavatlanishi alohida uslubiy vositadir. Duch kelgan tovushni qavatlab qo'llab bo'lmaganidek, so'zda turli sabablar bilan yonma-yon kelgan barcha undoshlar ham lingvopoetik jihatdan ahamiyatga ega bo'lavermaydi"² A. Abdullayev fikriga ko'ra, undoshlarni qavatlab qo'llash orqali badiiy asarda qahramon ruhiyatidagi xursandlik va xafalik holatlari tugal tasvirlashga erishiladi. Masalan: *G'upromiddin boshini silkitib –silkitib kuladi. – E, enasi tushmagur-a, bizzi xotin yoshligida bir gapga o'nni qo'ndirsa, qariganda o'ttizni qo'ndiradi. Unga bitta gap aytu orqangga qaramay qoch! – Bay-bay –bay,- deydi kampir,- haliyam qolmapti-da, shu odati o'lmagur. Hay mayli, umridan Baraka topsin. Ishqilib, xudo senga to'zim bersin. Chidaysan-da, chidamay qayoqqa ham boarding. Shuncha nevara – chevara, evara...(“Jimjitlik”, 147b)*

Fonetik vositalardan qahramonlarning ruhiy holatlari, ichki kechinmalarini tasvirlashda foydalaniladi, bu esa nutqiy ta'sirchanlikni oshirib, kitobxon oldida asarning jozibasini yanada oshiradi. Asarning nutqiy ta'sirchanligini shakllantirish, kitobxon oldidagi jozibasini yanada oshirish uchun adibdan yuksak mahorat talab etiladi. Said Ahmad asarlari tahlili jarayonida fonetik vositalardan unumli foydalanganligining guvohi bo'lamiz. Asarda uchraydigan fonetik vositalar asarning badiiy qimmatini yanada

¹ Shofqorov A. Mirtemir she'riyatida takrorning ma'noviy-uslubiy xususiyatlari: Filol.fanlari nomzodi...diss.avtoref. – T., 2012, 11b

² Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. : “Fan”, 2007, 48b

oshib, yozuvchining kitobxon oldidagi mahoratini ochib berishga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganimizda fonetik vositalar adabiy asarni shakllantiruvchi til birliklari va ularni qo'llashning uzviy qismi sifatida badiiy uslubning boshqa funksional uslublar orasida o'ziga xos o'rni borligini aniq ko'rsatib tura oladigan lingvoestetik omillardan sanaladi.

Bu vositalar ko'z oldimizda, avvalo, ona tilimizning keng jabhadagi semantik uslubiy rang-barangligini badiiy adabiyot orqali namoyish qila oladigan imkoniyat sifatida namoyon bo'ladi. Buni birinchi navbatda, badiiy matnda ko'pchilik so'zlarning ko'chma ma'nolarda qo'llanilib, ularning semantik ma'nosida kengayish ro'y bera borishida kuzatamiz. YA'ni, adabiy asar tili shu vositalar yordamida umumxalq tilining eng nozik jihatlarini ham yuzaga chiqara oladigan maydonga aylanishi mumkin.

So'zlar, umuman til birliklari bunda g'ayriodatiy qurilishlarda qo'llanilib, masalan, ma'nolar bir-biriga zid, yoki aksincha, ma'nolari bir-biriga yaqin ifodalar qarama-qarshi tarzda ishlatilib, favqulodda original tasvirlar va obrazlar yaratiladi. Bu narsa, o'z navbatida, troplarning ham, uslubiy figuralarning ham badiiy uslubdagi alohida mavqeini belgilaydi.

Nutqda fonetik vositalarning uslubiy vazifa bajarish maqsadida qo'llanilishi, umuman, badiiyatdan, qolaversa, shoir yoki yozuvchining ijodiy mahoratidan kelib chiqadigan zarurat mahsulidir. YA'ni bu vositalarning til birliklarini badiiy-estetik maqsadga xizmat qildirishga bo'ysundirishi, shu yo'lda ayrimlarining badiiy uslubga xoslanishi ularning bu uslubdagi o'rnini yana ham mustahkamlaydi.

O'zbek badiiyati, xususan she'riyatida san'atlarning yuzlab ko'rinishlari mavjud bo'lishi, birinchidan, o'zbek badiiy uslubining ildizlari qadimiy ekanligidan, uning shakllanganligiga ko'p asrlar o'tganligidan dalolat bersa, ikkinchidan, ular ona tilimizning, jumladan, badiiy nutqning yuksak ma'naviy-badiiy-estetik fazilatlari, mukammalligi va kamolotidan guvohlik beruvchi omillardir.

Said Ahmad asarlarida sintaktik figuralarning qo'llanilishi

Badiiy adabiyotda so'zning ma'nosi va ifodaviyligini kuchaytirish maqsadida qilingan shakliy-uslubiy o'zgarishlar *uslubiy-sintaktik figuralar* deb yuritiladi.

Ma'lumki, har bir lingvistik vosita badiiy nutqda nominativ vazifa bajarish bilan birgalikda uslubiy vosita ham bo'la olishi mumkin. Sintaktik figuralar jonli til tabiatidan kelib chiqadigan nutqiy hodisalar bo'lib, badiiy nutqda muayyan uslubiy maqsadni yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Chunki badiiy asarda til birliklari muallif tomonidan kommunikativ ta'sir maqsadida tanlab olinadi va shu jarayonda adibning individual faoliyati namoyon bo'ladi.

Said Ahmad ijodida ko'chim(trop)lar bilan birgalikda uslubiy-sintaktik figuralarning ham emotsional-ekspressiv ma'nolarni shakllantirishga qaratilgan stilistik imkoniyatlaridan keng foydalanilgan.

Badiiy nutqning ta'sirchanligini ta'minlashda sintaktik usuldan keng foydalaniladi. Ekspressivlikning namoyon bo'lish shakllarini teran tadqiq qilgan tilshunos olim A.Abdullayev "sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog'lovchilarning maxsus qo'llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq" kabi uslubiy figuralar "fikrning o'ta ta'sirchan ifodalanishi" ga xizmat qilishini ta'kidlaydi. "Badiiy tekstning lingvistik tahlili" kitobi mualliflari sintaktik figuralarning quyidagi asosiy ko'rinishlari mavjudligini bayon qilishadi: "anafora, epifora, takror, antiteza, gradatsiya, ellipsis, alliteratsiya, ritorik so'roq kabilar"¹ Demak, badiiy matnning ta'sirchanligini ta'minlovchi va emotsionalligini oshiruvchi sintaktik usullar quyidagilar: sintaktik parallelizm, emotsional gap, ritorik so'roq gap, inversiya, ellipsis, gradatsiya, antiteza, farqlash, o'xshatishlardir. Ekspressiv sintaktik qurilmalar bo'yicha kuzatishlar olib brogan A.P.Skovorodnikov badiiy matnda poetik aktuallashadigan sintaktik vositalarning 13 turi mavjudligini qayd etadi:

¹ Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. : "Fan", 2006, 57b

- 1) ellipsis
- 2) antiellipsis
- 3) kesish
- 4) pozitsion-leksik takror
- 5) parselyatsiya
- 6) segmentatsiya
- 7) antipatsiya
- 8) bog'lovchining ayrim turlari
- 9) so'z birikmasi komponentini almashtirish
- 10) inversiya
- 11) sintaktik parallelizm
- 12) ritorik so'roq
- 13) undov konstruksiyalar¹

Badiiy tasvir vositalariga ijtimoiy ta'sir usuli mavqeyini berishga erishish ijodkordan katta mahorat talab etadi. Yozuvchi o'zi bayon qilayotgan fikrni o'quvchiga ixcham, aniq, ta'sirchan va tushunarli qilib yetkazib berish uchun uzundan uzoq ta'rif va tavsiflar o'rniga o'xshatish, kinoya, sifatlash, majoz kabi vositalardan foydalangan holda lo'nda va aniq qilib tushuntirishga harakat qiladi. Yozuvchi voqelikni badiiy-estetik jihatdan ta'sirchan va yorqin ifodalash uchun tilning fonetik, leksik va grammatik imkoniyatlaridan o'ziga xos foydalanadi. Bu yozuvchining individual uslubi so'zlashuv nutqi imkoniyatlaridan foydalanishi va umumxalq tilining chegaralangan qatlamlari boyligini o'zida aks ettirishi bilan xarakterlanadi.

Sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog'lovchilarning maxsus qo'llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq kabi uslubiy figuralar fikrning o'ta ta'sirchan ifodalanishiga xizmat qiladi. Badiiy asar tili va individual uslubni o'rganish muayyan yozuvchining til birliklaridan foydalanishdagi mahoratini belgilashdan iborat. Shu maqsadda yozuvchi Said Ahmad asarlariga murojaat qildik.

¹ Ibragimova F. Antiellipsis lingvopoetik vosita sifatida. // O'TA, 2010,6-son, 103b

Adib o'xshatish, gradatsiya, takror, ellipsis va boshqa tasviriy vositalardan unumli foydalangan. Badiiy asarning emotsionalligini oshiruvchi usullardan biri o'xshatishdir. Insonning olamni bilishda o'xshatishning o'рни beqiyosdir. Doimo kuzatilayotgan narsa va hodisa oldin o'zlashtirilgan narsa va hodisaga qiyoslanadi; ular o'rtasidagi o'xshashlik oldingi nomning yangi narsa va hodisa uchun ham ishlatilishiga sabab bo'ladi. Tilda ilgari mavjud bo'lgan nomning muayyan o'xshashlik asosida yangi ma'no bildirish uchun qo'llanilinishi oddiy nominativ funksiyasigina bajarmaydi, balki tinglovchiga ta'sir etish (ekspressiv) vazifani ham bajaradi, tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi.¹ D.Xudoyberganova fikricha, o'xshatishlar badiiy adabiyotda tasviriy vosita, tilshunoslikda uslubiy figura, psixologiyada tafakkur amali, falsafada esa dunyoni bilish vositasi sifatida ta'riflanadi.² O'zbek tilshunosligida o'xshatishning semantik- sintaktik va uslubiy jihatlari bir qator ishlarning, jumladan M.Mukarramova³, N.Mahmudov⁴ tadqiqotlarining obyekti bo'lgan.

O'xshatish deb "ikki narsa yoki voqea –hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkretroq, bo'rttiribroq ifodalash" ga aytiladi. O'xshatishlar eng qadimiy tasviriy vositalardan biri sifatida nutqimizni, ayniqsa, badiiy adabiyot tilini bezashda, tasvirning aniqligi va obrazlilikini ta'minlashda foydalanib kelinadi. Panini grammatikasidan boshlab (eramizdan oldingi IV asr) qadimgi hind poetik- grammatik traktlarida o'xshatishlar poetik figura sifatida o'rganilgan va o'xshatishning muntazam to'rt unsuridan tarkib topishi ta'kidlangan, ya'ni:

- 1) o'xshatiladigan narsa yoki subyekt;
- 2) unga o'xshash bo'luvchi narsa yoki obyekt;
- 3) o'xshatish belgisi yoki o'xshatish asosi;

¹ Qobuljonova G. Metafora va o'xshatish. O'TA, 1999/ 5 son, 53b

² Xudoyberganova D. O'xshatish mazmunini ifodalovchi matnlar.//O'TA, 2012, 6-son, 15b

³ Mukarramova M. O'zbek tilida o'xshatish. T.: 1978

⁴ Mahmudov N. O'xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli.// O'TA, 2011, 3-son,19-24b

4) o'xshatishning formal ko'rsatkichi.¹

Biz ham N.Mahmudov², M.Yo'ldoshev³ fikrlariga tayangan holda o'xshatish munosabati tilda ifodalanar ekan, albatta, to'rt unsur nazarda tutilishini, ya'ni: 1) o'xshatish subyekti; 2) o'xshatish etaloni; 3) o'xshatish asosi; 4) o'xshatishning shakliy ko'rsatkichlari deb nomlashni lozim deb topdik.

Said Ahmad asarlari tahlili jarayonida quyidagi o'rinlarda o'xshatishlarga asoslangan badiiy matnlarni aniqladik:

1. *Bola orqasiga chigirtkadek sakrab yugurib ketdi.* ("Jimjitlik", 16b) Bunda: Bola – o'xshatish subyekti; chigirtka – o'xshatish etaloni; sakramoq semasi – o'xshatish asosi; -dek – o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi hisoblanadi.

2. *Nurmat tog'a tinchgina bankda bulbulning qafasidek tor kassada pul olib, pul berib kunini o'tkazib yurardi.* (Jimjitlik, 37 b) Nurmat tog'a – o'xshatish subyekti; bulbulning qafasi – o'xshatish etaloni; pul olib, pul bermoq semasi – o'xshatish asosi; -dek – o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi hisoblanadi.

3. *Mirvali pastga tushib, qo'lini peshonasiga soyabon qilib, xuddi arra bilan qirqilgandek tik qoyaga qaradi. O'ttiz metrli teleminora qoyaning qoq belida fil xartumidek ildizga ilinib qolgan edi.* ("Jimjitlik", 19b) Bunda: Mirvali - o'xshatish subyekti; arra bilan qirqilganlik - o'xshatish etaloni; qoya - o'xshatish asosi; xuddi va - dek - o'xshatishning shakliy ko'rsatkichlaridir. Ushbu matnda biz ketma –ket kelgan o'xshatishlarni uchratdik. Bu yozuvchining mahoratli ekanligidan dalolat beradi. Ushbu o'rinda kelgan ketma-ket o'xshatishlar badiiy nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Bunda: teleminora - o'xshatish subyekti; fil xartumi - o'xshatish etaloni; ildizga ilinib qolmoqlik semasi - o'xshatish asosi; - dek – o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi hisoblanadi.

¹ Mahmudov N. O'xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli.// O'TA, 2011, 3-son, 20b

² Mahmudov N. O'xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli.// O'TA, 2011, 3-son, 20b

³ Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. : "Fan", 2006, 63b

O'xshatish etaloni o'xshatish konstruksiyaning poetik qimmatini, estetik salmog'ini belgilaydi. O'xshatish etaloni qanchalik original bo'lsa, o'xshatishli qurilma ham shu darajada oxorli bo'ladi.¹

Avvalo, ta'kidlash lozimki, o'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi. O'xshatishning ikki turi, ya'ni: 1) individual-muallif o'xshatishlari yoki erkin o'xshatishlar; 2) umumxalq yoki turg'un (doimiy) o'xshatishlar farqlanadi.² M.Yo'ldoshev tasnifiga ko'ra, o'xshatishli qurilmalar an'anaviy va xususiy – muallif o'xshatishlari kabi guruhlariga ajratilgan. An'anaviy o'xshatishlar og'zaki nutqda ko'p ishlatiladigan, shu sababdan ta'sirchanligini yo'qotgan o'xshatishlardir.³ Masalan: *Hojimurod toyib yiqildi. Osmon yo'lini to'sgan tog'lar tepasidagi oyning doka orqasiga **chiroq yoqqandek** ojiz shu'lasi taralib kelardi. (Jimjitlik, 50 b). Past – balandlar, bag'rini yerga berib yotgan filga o'xshash bahaybat toshlar shaklini yo'qotgan. **Ilondak to'lg'ongan soy** ham endi yo'qqa o'xshaydi. (Jimjitlik, 53 b) Beshik, belanchak, qiz sumak, o'g'il sumak, ip o'raydigan urchuq, zarang cho'mich, o'roq bozori **qozondak qaynardi**. (Jimjitlik, 67 b)* An'anaviy o'xshatishlarni tasviriylilik, obrazlilik maqsadiga xizmat qildirish yozuvchining mahoratiga bog'liq. Xususiy – muallif o'xshatishlari yozuvchining o'z nigohi, kuzatuvchanligi, badiiy tahayyuli, analogiya quvvati asosida xalq tilidan foydalangan holda yaratgan o'xshatishlardir. Bunday o'xshatishlarda originallik, obrazlilik va ekspressivlik hamisha yorqin ifodalangan bo'ladi. Har qanday o'xshatishlardan maqsad tasavvur qilinishi qiyin bo'lgan tushunchalarni aniqlashtirish, narsa- hodisa, harakat –holatlarning eng nozik jihatlarini kitobxon ko'zi o'ngida go'zal bo'yoqlarda gavdalantirishdan iborat bo'lmog'i lozim.⁴ N.Mahmudov fikricha, individual-muallif o'xshatishlar kutilmaganligi, oxorliligi bilan ham o'quvchini

¹ Yo'ldoshev M Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. : "Fan", 2006, 63b

² Mahmudov N. O'xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli.// O'TA, 2011, 3-son, 20b

³ Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. : "Fan", 2006, 63b

⁴ Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. : "Fan", 2006, 63b

rom etadi, muayyan ruhiy yoki jismoniy holat-xususiyat-predmetlarni o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavdalantiradi.

1.Akalarini izlab ostonaga yemaklab kelgan kenja o'g'il og'zidagi bittagina tishini ko'rsatib Tolibjonga talpindi. Tolibjon xuddi **kapalakning qanotidan ushlayotgandek** avaylab uni ko'tardi. Bag'riga iliqqina tekkan bola tani uni seskantirdi. Vujudi titrab ketdi. (Jimjitlik, 58 b) Keltirilgan misolda bola kapalakka o'xshatilgan. Kapalak – nafis, dilgir, nozikligi va chiroyliligi bilan barchani o'ziga maftun etadi. Lekin kapalak eng nimjon, umri qisqa hasharotdir. Unga ehtiyotsizlik munosabatida bo'lsak, umriga zomin bo'lishi mumkin. Xuddi shunday bolaga ham e'tibor, parvarish lozimdir.

2.Hoji xuddi **tashlagan po'stiga tikilgan beshiktebratardek** yonayotgan kiyimlariga ma'yus qarab turardi. (Jimjitlik, 45 b)

3.U Mirvalining bolalik yillarini endi aniq ko'z oldiga keltira boshladi. Juda sho'x bola edi. Mushtlashishga o'ch, o'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini oladigan **simobdek beqaror** edi. Endi quyilib qolgandir.(Jimjitlik, 17 b) Keltirilgan misolda adib qahramonning xarakter – xususiyatini simob kimyoviy moddasiga o'xshatgan.

4. Ayniqsa, gala-gala mushuklarning bag'illab miyovlashi, **papiros cho'g'idek o'chib yonayotgan ko'zlari** Hojimurodning etini muzlatib yubordi.. (Jimjitlik, 50 b)

Badiiy nutqning emotsional –ekspressivligini ta'minlovchi sintaktik figuralardan yana biri gradatsiyadir. Gradatsiya (lot. gradatio – bosqichma-bosqich kuchaytirish) Nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma'nosini(mazmunini) kuchaytirib borishdan iborat uslubiy jarayon.¹ Badiiy adabiyotda holatlarni, tuyg'u va kechinmalarni qiyoslashda, his-hayajonlar junbushini to'liq ifodalashda gradatsiya usulidan foydalaniladi. Adabiyotlarda gradatsiya xususiyatlariga ko'ra turlicha tasnif qilinadi: mohiyatiga ko'ra: ko'tariluvchi gradatsiya (klimaks) va pasayuvchi gradatsiya (antiklimaks);

¹ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 31b

ifoda usuliga ko'ra: mantiqiy, emotsional va miqdoriy gradatsiya; ifoda materialiga ko'ra: leksik gradatsiya va sintaktik gradatsiya.¹

Said Ahmad asarlari tahlili jarayonida quyidagi o'rinlarda gradatsiyalarni aniqladik:

Mirvali, *“hozir kartinka ko'rasanlar” deb, simni yechib, uchini jiydaning ayrisiga tashlab tortdi. It oyog'idan osilgancha ko'tarila boshladi. Oxiri u odam bo'yi ko'tarilgandan keyin Mirvali sim uchini jiyda tanasiga mahkam qilib bog'ladi. It **tipirchilar, vangillardi**. Mirvali qo'ynidan gugurt chiqazib, bir parcha qog'ozni yondirdi-da, itning bo'yniga tutdi. Xuddi fonar yog'I sepilgandek itning junlari lop etib yonib ketdi. Olov ichida qolgan it **dahshatli ulidi**. Endi u kattakon mash'aladek lovullab yonardi. Saldan keyin itning **ovozi o'chdi**, qimirlamay qoldi. (Jimjitlik, 23 b)* Keltirilgan misolda dastlab voqealar hikoya tarzida bayon qilingan. So'ngra itning holatini ifodalash uchun adib ko'tariluvchi gradatsiyadan foydalangan. Tipirchilash, vangillash, ulish leksemalari orqali itning ruhiy holat kechinmalarini ochib bergan. Badiiy nutq so'nggida esa o'chmoq leksemasi orqali adib pasayuvchi gradatsiyadan foydalangan. Bir o'rinda mohiyatiga ko'ra gradatsiya turlaridan unumli foydalanish adib mahoratining bir ko'rinishidir.

Biz adib asarlari tahlili jarayonida badiiy nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi sintaktik figuralardan biri takrorga ham yuzlandik. O'zbek tilshunosligida badiiy takror hodisasi uchta yo'nalishda muayyan darajada tadqiq qilingan:

1. Sof lingvistik nuqtayi nazardan
2. Lingvostilistik va lingvopoetik nuqtayi nazardan
3. Badiiy san'atlarning o'ziga xos turi sifatida.

Birinchi turdagi ishlarga Z.O'rinboyev, M.Bo'ronova hamda grammatikalarda uchraydigan takrorlarga oid fikrlarni kiritish mumkin. Ikkinchi guruh tahlillari badiiy til stilistikasi, lingvostilistika va lingvopoetikaga bag'ishlangan ishlardagi badiiy takrorga oid aytilgan fikrlardan iborat.

¹ Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. T. : “Fan”, 2006, 60b

Chunonchi, R.Qo'ng'urov, S.Karimov, X.Doniyorov, B.Yo'ldoshev, M.Yo'ldoshev, N.Afoqova, G.Muhammadjonova, D.Shodiyeva, N.To'lanova, S.Boboyeva, S.Boymirzayeva, R.Shukurov ishlari. Uchinchi guruh kuzatishlariga I.Sultonov, T.Boboyevlarning adabiyot nazariyasiga oid ishlarini, shuningdek, badiiy san'atlar va ularning turlarini maxsus yoritishga bag'ishlangan Y.Is'hoqov, A.Hojiahmedovlarning tadqiqotlarini hamda adabiyotshunoslik terminlarining izohli lug'atlaridagi mulohazalarni kiritish mumkin.¹

Takror – ayni so'zning sintaktik birlik sifatida ikki va undan ortiq holda qo'llanishi² bo'lib, yozuvchi o'z asarlarida badiiy nutqning ta'sirchanligini oshirish, qahramonning ruhiy holat kechinmalarini ifodalash uchun foydalanadi: - *Pulni-ku, **to'laysan**. Senga pul cho't emas. Qurbonlar umrini nima bilan **to'laysan**? Azob – uqubatda yo'qolgan navqiron umrimni nima bilan **to'laysan**? Sarson- sargardon bo'lib, o'lib ketgan xotinimning umrini nima bilan **to'laysan**? Yo'q bo'lib, to'zib, patarat topib ketgan oilamga qancha haq **to'laysan**? Kiyimlarni yoq. Bo'lmasa tepkini bosaman. (Jimjitlik, 45 b)* Keltirilgan misolda adib to'lamoq leksemasini takror qo'llash orqali ritorik so'roq gaplarni yuzaga keltirgan. Ushbu badiiy nutqda qahramonning junbushga kelgan g'azab va nafratini ifodalashda ritorik so'roq usuli juda qo'l kelgan va asarning badiiy- estetik qimmatini oshirib, yozuvchining maqsadini ochib berishga xizmat qilgan.

Asarni tahlil qilish jarayonida yana bir necha o'rinlarda badiiy takrorlarga asoslangan matnlarni aniqladik:

1. *Men seni qidirmadim,-dedi bosiq, bo'g'iq ovoz bilan Nurmat tog'a.- Jazoingni xudo bersin, degandim. Yo'q, sen xudoga ham chap berding.Ajal tortib, o'z oyog'ing bilan oldimga kelding. **Imon keltir...Imon keltir**. Hozir o'lasan. Al-qasos-ul-minal haq, deydilar. (Jimjitlik, 44 b)*

¹ Shofqorov A. Mirtemir she'riyatida takrorning ma'noviy-uslubiy xususiyatlari: Filol.fanlari nomzodi...diss.avtoref. – T., 2012, 4b

² Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 101b

2. –Nima?! –dedi hayratlanib Mirvali.- **Jimjitlik** dedingmi? Voy, seni qarayu! **Jimjitlikni** men bor joydan qidiryapsanmi? Topib bo'psan! Tavba, dunyoning ishlari zap g'alati-da. Men **jimjitlikni** quvib yuribman, bu bo'lsa qidirib yuribdi. **Jimjitlikni** odamzod o'lganda topadi. Go'rga kirganda!... Menga qara, seni sizlaymi, senlaymi? Sizlasam begonaga o'xshab qolasan. Senlasam diling og'riydimi, deyman. (*Jimjitlik*, 24 b)

Yuqoridagi misollarning birinchisida qahramonning g'azab va nafrat tuyg'ularini ifodalashga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchisida qahramonning ruhiy kechinmalari, his-tuyg'ulari mohirona usulda takror usuli orqali tasvirlangan.

Badiiy nutqda uslubiy g'alizlikning oldini olish uchun xizmat qiladigan, lingvistik iqtisodga asoslangan sintaktik figuralardan biri ellipsisdir. Ellipsis (yun. elleipsis – tushish, tushirilish¹) nutqiy aloqa jarayonida gap bo'laklarining muayyan maqsad bilan tushirilish hodisasidir. Bunday jarayon lisoniy tejamkorlik asosida amalga oshadi va badiiy matnlarda jonli nutqqa xos tabiiylikni amalga oshirish uchun xizmat qiladi: *Bu dunyo shundoq bolam. Olam yaralibdiki, birovga baxt, birovga alam keladi.* (*Jimjitlik*, 8 b) Ushbu o'rinda keladi, ya'ni kesimning tushirilishi orqali adib uslubiy g'alizlikning oldini olgan. Ushbu o'rinda *keladi* leksemasi – kesimning tushirilishi orqali adib nutqiy tejamkorlikka erishgan. *Qaysi aybi uchun, qaysi beodobligi uchun? – dedi oqsoqol uning ko'ziga qarab. – Chet elga yuborilganlar jazo o'tash uchun yuborilmaganlar.* (*Jimjitlik*, 11 b) Ushbu o'rinda ham adib kesimning tushirilishi orqali uslubiy xatolikning oldini olgan va bu tejamkorlik qahramonning g'azab va nafrat ruhiy holatini ochib berishga, badiiy nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.). Ushbu o'rinda ham tejamkorlik qahramonning g'azab va nafrat ruhiy holatini ochib berishga, badiiy nutqning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.- Kunda

¹ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 133b

yegan och, yilda yegan to'q, deb shuni aytadi-da. Hoy, kuyov to'ra, Xartumning bozoridan bir qadoqqina sedana opkelib bering. (*Jimjitlik*, 56 b)

Badiiy nutqning ta'sirchanligini ta'minlovchi badiiy tasvir vositalaridan biri sintaktik parallelizmdir. Badiiy matnda sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gaplar ko'p qo'llaniladi. Tilshunoslikda bunday qurilmalar parallelizm atamasi ostida o'rganiladi. Parallelizm (yunoncha paralelos – yonma-yon boruvchi) yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo'lishidir.¹ Parallel birliklarning asosiy vazifasi fikrga izoh berish va eng muhimi, unga tinglovchini to'la ishonтира olishdan iborat. Ular til uslubiy vositalarining boyishi manbalaridan biri bo'lib, poetik nutqda ko'p qo'llanadigan, eng mahsuldor va ta'sirchan sintaktik birlik hisoblanadi.² Adib asarlari tahlili jarayonida parallelizmdan unumli foydalangan o'rinlarni uchratdik: *Bunda **nur bilan soya o'yini** yo'q edi. Uning bu ko'rayotganlari **buyuk kashfiyotga** o'xshardi. Shuncha yoshga kirib, hali bu to'g'rida sira o'ylab ko'rmagan ekan. Endi u **nur bilan soyaning buyuk qudratiga** imon keltirdi.* (*Jimjitlik*, 53 b) Parallelizmga asoslangan gaplar badiiy nutqning ta'sirchanligini boyitish bilan bir qatorda ma'noni kuchaytirishga, fikrning atroflicha ifodalanishiga, tasvir obyektiining boyib borishiga xizmat qiladi.

Sintaktik figuralar nutqiy ta'sirchanlikni oshirib, kitobxon oldida asarning jozibasini yanada oshiradi. Asarning nutqiy ta'sirchanligini shakllantirish, kitobxon oldidagi jozibasini yanada oshirish adib mahoratiga bog'liqdir. Said Ahmad asarlari tahlili jarayonida sintaktik figuralardan unumli foydalanganligining guvohi bo'lamiz. Asarda uchraydigan sintaktik figuralar asarning badiiy qimmatini yanada oshirib, yozuvchining kitobxon oldidagi mahoratini ochib bergan.

O'xshatish, gradatsiya, takror, ellipsis va boshqa tasviriy vositalar chuqur falsafiy ma'nolar tashuvchi matn darajasiga ko'tarilar ekan, ularning badiiy-uslubiy imkoniyatlari kengayib, murakkablashib boradi. Said Ahmad ijodida esa

¹ Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 79b

² Shukurov R. Sintaktik parallelizmning uslubiy vazifalari.// O'TA, 2004, 2-son, 73b

ular asarning badiiy-estetik kuchini oshirishda, emotsional-ekspressiv ma'nolarni shakllantirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilgan.

UMUMIY XULOSALAR

Badiiy asar tilining badiiy-estetik funksiyalarini tilshunoslik aspektida o'rganish muayyan asar yaratilgan davr tilining o'ziga xosligi, yozuvchilarning so'z boyligi, til vositalaridan foydalanish usullarini, demakki, «xalqning ruhi» bo'lgan tilga ijtimoiy ta'sirlarni tahlil qilish bilan chambarchas bog'liq.

Shu kunga qadar o'zbek filologiyasida uslubiyat va uslubshunoslik, uslub tushunchalari o'zining aniq va lo'nda ta'rif-tavsifiga ega emas. Bu masalaga turlicha yondashuvlar va ayrim chalkashliklar davom etib kelmoqda. Bizningcha, muayyan janrga xos xususiy belgilarni uslub tushunchasi, janrlararo umumiy belgilarni metod tushunchasi ifodalaydi. Demak, «umumiylik»ka xos bo'lgan tushunchalar metod doirasida, «xususiylik»ka xos bo'lgan tushunchalar uslub doirasida tekshirilishi kerak. Usul esa, muayyan ijodkorning individual uslubi doirasida tanlagan tasvir yo'lidir.

Ijodkorning individual uslubini o'rganish murakkab jarayon bo'lib, u ham adabiy, ham lingvistik tahlil imkoniyatlarini o'zida mujassamlashtiradi va shu tarzda shoir yoki yozuvchi ijodiy tafakkuri o'ziga xos jihatlarining qay tarzda yuzaga chiqishini tekshiradi. Bu tarzda tadqiqotlarni «ma'lum bir ijodkorning tildan foydalanish mahoratiga doir ishlar» sifatida alohida guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir.

Dastlab «poeziya» va «poetika» tushunchalari aralash holda qo'llanganini e'tiborga olsak, uning faqat she'riy asarlarga nisbatan qo'llanishi, bizningcha, yetarli emas. Hozirgi zamon adabiyotshunosligi nuqtai nazaridan olib qaralganda, bizningcha, tor ma'noda, badiiy asar tuzilishi, uning turli qismlari orasidagi munosabat, badiiy nutq stilistikasi, ya'ni badiiy nutq va uning xarakteri, turli badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati masalalarini o'rganuvchi sohaga nisbatan poetika atamasi qo'llanadi. «Poetika» atamasiga sinonim sifatida «badiiyat» so'zini ham qo'llash mumkin.

Badiiy asar nutqi va adib uslubini shakllantiruvchi lisoniy vositalar quyidagicha tasniflandi: a) fonetik vositalar; b) leksik vositalar; v) grammatik vositalar: - morfologik vositalar; - sintaktik vositalar.

Morfemik vositalar grammatik vositalarning tarkibiy qismi hisoblangan morfologik vositalar doirasida tekshirildi. «Poetik semantika» esa leksik vositalar hamda ko'chimlar tarkibida o'rganildi.

Qator fonetik hodisalar – tovushlarning cho'zib talaffuz qilinishi, qavatlantirilishi, tovush tushishi, orttirilishi va almashishi turli konnotativ ma'nolarni ifodalashda muhim stilistik vosita bo'la oladi.

So'z qo'llashdagi individuallik ijodkor uslubining o'ziga xosligini belgilovchi omillardan biri hisoblanadi. Said Ahmad ijodidagi o'ziga xos okkazonalizmlarning matn jozibadorligi, badiiy bo'yoqdorligi, hissiy ta'sirchanligini oshirishdagi o'rni xarakterlidir.

Xalq donishmandligining mahsuli bo'lgan maqol, matal, masal, idioma kabi paremlar ijtimoiy muhit ruhiyatini aks ettirish, badiiy asar g'oya va maqsadini, personajlar ichki dunyosini ochishda, nutqqa ta'sirchanlik va ifodalilik baxsh etishda muhim ekspressiv ahamiyatga ega. Tilshunoslik nuqtai nazaridan olib qaralganda, maqol, matal, masal, idioma tipidagi paremlarda mushtarak va farqli tomonlar kuzatiladi. Paremlarning semantik xususiyatini o'rganish lingvopoetik tahlil uchun boy material bera oladi.

Metaforada so'z nominativ ma'no ifodalash bilan birga badiiy ifoda vositasi sifatida konnotativ ma'no ham ifodalaydi.

Said Ahmad asarlaridagi odatiy, jonli va sinestetik metaforalar personajlarning ruhiy holati, tabiat tasviri, qahramonlarning voqelikka munosabatini obrazli ifodalash, voqea-hodisalarni ishonarli, yorqin tasvirlashda muhim ahamiyatga ega.

XX asr oxiri – XXI boshi nasrida ramziylik, tagma'noli bayon usuli yetakchi unsurlardan biriga aylandi. Bugungi davr o'zbek adabiyotida ramz tasviri vositasining funksiyasi va mohiyati ancha kengayib, mazmunan boyishi

kuzatiladi. Said Ahmad asarlarida ramziy-majoziy talqin yetakchi uslubiy xususiyatlardan biriga aylangan.

Said Ahmad asarlarida takror, parallelizm kabi uslubiy-sintaktik figuralarning ham emotsional-ekspressiv ma'nolarni shakllantirishga qaratilgan stilistik imkoniyatlaridan keng foydalanilgan.

Said Ahmad asarlari tilining boy va jozibador bo'lishida dialektizmlarning o'рни va roli muhimdir. Yozuvchi asarlarining eng birinchi ko'zga tashlanadigan xususiyatlaridan biri ham muallifning shevaga xos o'zgachaliklardan unumli foydalanganligidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I. A. Adolat, Vatan va xalq manfaati har narsadan ulug'. –Toshkent: O'zbekiston, 1998.
2. Abdurahmonov G'., Mamajonov S. O'zbek tili va adabiyoti. –T.: O'zbekiston, 2003. – 351b.
3. Abdurahmonov G'., Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. – T.: O'qituvchi, 1973. – 320 b.
4. Aliyev A.Yu. O'zbek adabiy tili tarixidan materiallar. –T.: O'zbekiston, 1996. – 118 b.
5. Berdiyev H., Rasulov R. O'zbek tilining paremiologik lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1984. – 158 b.
6. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O'zbekiston, 2002. – 558 b.
7. Fitrat A. Adabiyot qoidalari –T.: O'qituvchi, 1995. – 109 b.
8. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1985. – 144 b.
9. Hojiyev A. Fe'l. –T.: Fan, 1973. – 191 b.
10. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. T.: "O'qituvchi", 1974y, 308 b.
11. Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish. –T.: O'qituvchi, 1992. – 255 b.
12. Jo'rayeva B. Ibora va maqolda idiomalashuv // O'TA, 2010y, №6
13. Kamol F. Hozirgi zamon o'zbek tili// Leksikologiya. Fonetika. Grafika va orfografiya. Morfologiya. T.: 1957y
14. Karimov S.A. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. Samarqand, 1994
15. Mallayev N. O'zbek adabiyoti tarixi. –T.: O'rta va Oliy maktab, 1963. – 720 b.
16. Mamajonov S. Uslub jilolari. –T.: Adabiyot va san'at, 1972. – 220 b.
17. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. –T.: O'qituvchi, 1995. – 230 b.

18. Muhiddinov M., Karimov S. G'afur G'ulomning poetik mahorati. Samarqand: SamDU, 2003. – 126 b.
19. Mahmudov N. O'xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli.// O'TA, 2011, 3-son
20. Mamatov A., Boltayeva B. Frazemalar transformatsiyasi // O'TA, 2012y, №1
21. Mamatov A. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. DDA. – T.: 1999y
22. Maxsumova S. Metaforalar orqali konnotativ – pragmatik ma'noning hosil bo'lishi. (Erkin Vohidov she'rlari misolida) O'TA, 2009/ 5 son
23. Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. Toshkent, 2010
24. Mukarramova. O'zbek tilida o'xshatish. T.:, 1978
25. Mirzayev M., Eshonqulov Y. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. Mashqlar to'plami.
26. Ne'matov H., Rasulov R. O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari. –T.: O'qituvchi, 1995. – 127 b.
27. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. (Akademik litseylarning 2-bosqich talabalari uchun darslik). T.: “Sharq”, 2002y
28. Pinxasov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Leksikologiya va frazeologiya. “O'qituvchi”. – T , 1969y. 80 b.
29. Qobuljonova G. Metafora va o'xshatish. O'TA, 1999/ 5 son
30. Qilichev E. O'zbek tilining praktik stilistikasi. –T.: O'qituvchi, 1985. – 101b.
31. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. –T.: O'qituvchi, 1992.– 160b.
32. Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. –T.: SHarq, 2004. – 287 b.
33. Qo'ng'urov R. va boshqalar. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. –T.: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
34. Rahmatullayev Sh, Mamatov N, Shukurov R. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. T.: “O'qituvchi”, 1980

35. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. T.: "O'qituvchi", 1978
36. Sayfullayev A.R. Hozirgi o'zbek tilida gap bo'laklarining semantikasi va grammatikasi. –T.: Fan, 2000. – 128 b.
37. Sodiqova M. Fe'l stilistikasi. –T.: Fan, 1975. – 107 b.
38. Sultonova M. Yozuvchi uslubiga doir. –T.: Fan, 1973. – 115 b.
39. Suvonova R. Metaforalar tasnifiga doir. O`TA, 2010 yil, №6 111-112 b.
40. Turdialiyeu B. Hamza va o'zbek adabiy tili. –T.: Fan, 1981. – 104 b.
41. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T.: O'zbekiston, 1992. – 399 b.
42. Umurqulov B. Poetik nutq leksikasi. –T.: Fan, 1990. – 110 b.
43. Xotamov N., Sarimsaqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1979. – 365 b.
44. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: O'qituvchi, 2003. – 361 b.
45. O'zbek tili grammatikasi. I tom. –T.: Fan, 1975. – 610 b.
46. O'zbek xalq maqollari. –T.: Adabiyot va san'at, 1989. – 510 b.
47. O'zbek tilining izohli lug'ati. I tom, T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006 y, 680 b..
48. O'zbek tilining izohli lug'ati. II tom, T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006y, 672 b.
49. O'zbek tilining izohli lug'ati. III tom, T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007y, 688 b.
50. O'zbek tilining izohli lug'ati. IV tom, T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008y, 608 b.
51. O'zbek tilining izohli lug'ati. V tom, T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2008y, 592 b.
52. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: O'qituvchi, 1987. – 255 b.
53. Yo'ldoshev M. Cho'lpon so'zining sirlari. –T.: Ma'naviyat, 2002. – 80 b.

54. Zunnunov A., Xotamov N. Adabiyot nazariyasidan qo'llanma. –T.: O'qituvchi, 1978. – 160 b.
55. Shomaqsudov A., I.Rasulov, R.Qo'ng'urov, H.Rustamov O'zbek tili stilistikasi. –T.: O'qituvchi, 1983. – 244 b.
56. Shukurov N. Uslublar va janrlar. –T.: Adabiyot va san'at, 1973. – 169 b.

II. DISSERTATSIYA VA AVTOREFERATLAR

1. Aripova A.X. Notqlik nutqining lisoniy-uslubiy vositalari: Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. –T., 2002. – 22b.
2. Boboniyozov A.Y. Abdulla Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanida tasviriy vositalar va til badiiyati: Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. –T., 1995. – 27 b.
3. Hakimov M.X. O'zbek tilida matnning pragmatik talqini: Filol. fanlari d-ri... diss. avtoref. –T., 2001. – 49 b.
3. Ibragimova E.I. O'zbek tilida ironiya va ironik mazmun ifodalanishining usul hamda vositalari: Filol. fanlari nomzodi...diss. avtoref. –T., 2001. – 21 b.
4. Imomova G.M. Tipik milliy xarakter yaratishda badiiy nutqning o'rni: Filol. fanlari nomzodi...diss. –T., 1993. – 135 b.
5. Karimov S.A. O'zbek tilining badiiy uslubi: Filol. fanlari d-ri... diss. – Samarqand, 1993. – 292 b.
6. Muhammadjonova G. 80-yillar oxiri 90-yillar boshlari o'zbek she'riyatining lingvopoetik tadqiqi: Filol. fanlari nomzodi... diss. – Andijon, 2003. – 136 b.
7. Ne'matova D. Cho'lpon publitsistikasining lingvistik xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi...diss. avtoref. –T., 2004. – 21 b.
8. Normurodov R.U. Shukur Xolmirzayev asarlarining til xususiyatlari: Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. –T., 2000. – 25 b.
9. Nurmatov A. Badiiy asarda polifonizm: Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. –T., 1996. – 26 b.
10. Qobuljonova G. Metaforaning sistemaviy lingvistik talqini: Filol. fanlari nomzodi...diss. avtoref. – T., 2000. – 21 b.
11. Rahimov A. O'zbek romani poetikasi: Filol. fanlari d-ri... diss. –T., 1993. – 323 b.
12. Samadov Q. Oybek til mahoratining ba'zi masalalari: Filol. fanlari nomzodi... diss. –T., 1967. – 245 b.

13. Solijonov Y. XX asrning 80-90-yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi: Filol. fanlari d-ri... diss. – T., 2002. – 302 b.
14. Solijonov Y. XX asrning 80-90- yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi: Filologiya fanlari d-ri... diss. avtoref. –T., 2002. – 49 b.
15. Toshaliyeva S. O'zbek tilida okkazional so'z yasalishi: Filol. fanlari nomzodi... diss. –T., 1998. – 170 b.
16. Toshpo'latov Z. Aforizmlarning janr xususiyatlari va badiiyati. : Filol.fanlari nomzodi...diss.avtoref. – T., 2006
17. Tursunov J. G'afur G'ulomning prozadagi mahoratiga doir: Filol. fanlari nomzodi... diss. – T., 1963. – 195 b.
18. .Vafoyeva M. O'zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning structural-semantic tahlili. Filol.fanlari nomzodi...diss.avtoref. – T., 2009
19. Yuldashev B. Yazyk i stil proizvedeniy Saidaxmada: Diss... kand. filol. nauk. – Samarkand, 1978. – 176 s.
20. Yo'ldoshev M. Cho'lpon badiiy til mahorati: Filol. fanlari nomzodi... diss. avtoref. –T., 2000. – 26 b.
- 21.Shofqorov A. Mirtemir she'riyatida takrorning ma'noviy-uslubiy xususiyatlari: Filol.fanlari nomzodi...diss.avtoref. – T., 2012

III. BADIY ASARLAR

1. Said Ahmad. Jimjitlik. "O'zbekiston", T.: 2008.